

Bitiruv malakaviy ishi muqovasining ustki jildi namunasi

TARIX-FALSAFA FAKULTETI

FALSAFA YO'NALISHI

**Siyosiy madaniyat sotsial madaniy
hodisa sifatida**

Malakaviy bitiruv ishi

Bajaruvchi: Azizov N

Ilmiy rahbar: dots. Vafayeva.Dj.B

Samarqand - 2011

*Izoh: Bitiruv malakaviy ishi muqovasining ustki jildiga ramka ichidagi
namuna qirqib yopishtiriladi.*

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI
TARIX-FALSAFA FAKULTETI
FALSAFA YO'NALISHI**

SHARQ FALSAFASI VA MA'NAVIYAT KAFEDRASI

Siyosiy madaniyat sotsial madaniy hodisa sifatida

MALAKAVIY BITIRUV ISHI

Bajaruvchi: Azizov N

Ilmiy rahbar: dots. Vafayeva.Dj.B

**Malakaviy bitiruv ishi Sharq falsafasi va ma'naviyat kafedrasida
bajarildi. Kafedraning 2011 yil 24 maydagi majlisida muhokama qilindi va
himoyaga tavsiya etildi (bayyonnoma № ____).**

Kafedra mudiri:

dots. Qulmurodov U.Q

**Malakaviy bitiruv ishi YaDAKning 2011 yil 25 iyundagi majlisida
himoya qilindi va __ foizga baholandi (bayyonnoma № ____).**

Samarqand – 2011.

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov «Ko'p millatli jamiyatimizda ijtimoiy-siyosiy barqarorlik, fuqarolar o'rtasida tinchlik va millatlararo totuvlik saqlanganligi mustaqil O'zbekistonning bunyod bo'lishi va rivojlanishining birinchi boshlang'ich bosqichida qo'lga kiritilgan yeng asosiy yutuq bo'ldi»¹ deb ta'kidlab o'tidi. Haqiqatdan ham ijtimoiy-siyosiy barqarorlik natijasida siyosiy madaniyat shakllanadi. Siyosiy madaniyat siyosiy tadqiqotlar instusional tahlilning cheklanganligini yengish imkonini beradi. Jumladan, u shaklan bir xil davlat hokimiyati institutlari turli mamlakatlarda ba'zan butkul boshqacha faoliyat ko'rsatishini tushuntirish imkonini ham beradi. Siyosiy madaniyat nazariyasi o'z diqqatini odamlar moyil qadriyatlar, mahaliy afsonalar, ramzlar va stereotiplar mazmunni, inson mentaliteti va shu singari hodisalarga qaratib, fuqarolar va institutlarning siyosiy xulq – atvori sabablarini chuqurroq o'rganish, ko'plab ixtiloflar sababini aniqlashga imkon yaratadi. Shu jihatdan kelib chiqib siyosiy madaniyatning o'rganilish doirasi juda keng bo'lib biz faqatgina uning sosial madaniy hodisa sifatida o'rganamiz.

Muammoning ishlanganlik darajasi. Siyosiy madaniyat sosial madaniy hodisa bilan bog'liq muammo va shu atrofidagi masalalar mamlakatimizda va xorijda u yoki bu darajada o'rganilgan. Jumladan, bu masala bo'yicha Prezidentimiz I.A.Karimov², olimlarimizdan Otamurodov S., Yergashev I., Akromov Sh., Kodirov A³, T. Sultonov, A. Xayitov⁴, Bekmurodov A. Sh. , Aliyev

¹ I.A.Karimov. Vatanimizning tinchligi va xavfsizligi o'z kuch-qudratimizga, xalqimizning hamjihatligi va bukilmas irodasiga bog'liq. - T.: O'zbekiston, 2004. 23 b.

² Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. - T. O'zbekiston, 2005., «Imperiya davrida bizni ikkinchi darajali odamlar deb hisoblashar edi». - T.: O'zbekiston, 2005., O'zbek xalqi xech qachon, xech kimga qaram bo'lmaydi. - T.: O'zbekiston, 2005., Erishilgan yutuqlarni mustahkamlab, yangi marralar sari izchil harakat qilishimiz lozim. – “Xalq so'zi”, 2006 yil 11 fevral., Mamlakatimiz taraqqiyotining qonuniy asoslarini mustahkamlash faoliyatimiz mezon bo'lishi darkor. – Xalq so'zi”, 2006 yil 25 fevral. O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li. T.: “O'zbekiston”, 2007, Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. T.: «Ma'naviyat», 2008., Karimov I.A. O'zbekistonning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy istiqbolininh asosiy tamoyillari. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasidagi ma'ruza. 1995 yil, 23 fevral. “Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir” kitobida, 3 jild, - Toshkent: O'zbekiston, 1996 yil., Karimov I.A. Adolat qonun ustuvorligida. Ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining oltinchi sessiyasidagi ma'ruza. 2001 yil 29 avgust. “Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak” kitobida, 10 jild, Toshkent: O'zbekiston, 2002 yil., Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish. T.: “O'zbekiston”, 2009.

³ Политология (Ўқув кўлланма), Тошкент, «Ўзбекистон», 1999

⁴ Демократик жамият сари: парламент сайловлари ва сиёсий партиялар. ТДИУ 2005й.

B., Boboyev A¹ va Pugachev V.P. Solovev A.I.², Dubkov V.V³. tomonidan masala atroflicha o'rganilgan.

Malakaviy bitiruv ishi maqsadi: Bugun jadallashib borayotgan dunyoda mafkuraviy tahdidlar juda ko'p bo'lib ularning oldini olish va ularga qarshi kurashishda mafkuraviy immunitet bilan bir qatorda siyosiy madaniyat har o'rin egallaydi. Bunda siyosiy madaniyat sosial madaniy hodisa sifatida o'rganilib, ularni ushbu malakaviy bitiruv ishida bir tizimga solingan holda xulosalarni bayon etish.

Malakaviy bitiruv ishi obyekti: Siyosiy madaniyatning sosial madaniy hodisa ekanligi.

Malakaviy bitiruv ishi predmeti: Bugungi kunda siyosiy madaniyat sosial madaniy hodisa ekanligi va uning jamiyatda tutgan o'rni.

Malakaviy bitiruv ishi vazifalari:

1. Siyosiy madaniyat tushunchasini yoritib berish.
2. Siyosiy madaniyat uning asosiy elementini ilmiy o'rganish.
3. Siyosiy madaniyat: tadqiqot va an'analar bilan yaqindan tanishish.
4. Siyosiy madaniyat va uning qadriyatlarini yoritib berish.
5. Jamiyatda siyosiy madaniyatning qadriyatlari kqrsatib berish.
6. Siyosiy madaniyat va hozirgi rivojlanishni ko'rsatib berish.

Malakaviy bitiruv ishi metodlari:

1. Analiz va sintez
2. Qiyosiy tahlil
3. Induktiv va diduktiv
4. Tarixiylik va mantiqiylik

Malakaviy bitiruv ishining metodologik asosi: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning asarlarida bayon qilingan fikrlari, O'zbekiston

¹ Ўзбекистонда парламентаризм тараққиёти. Тошкент. 2005.

² Политология кириш. Т.: «Янги аср авлоди», 2004

³ Политология (Основы политических знаний). Учебник. Т.: «Мехнат», 2004

Respublikasi «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», ushbu malakaviy bitiruv ishining metodologik asosi sifatida olindi.

Malakaviy bitiruv ishining tarkibiy tuzilishi va hajmi: Malakaviy bitiruv ishi 57 betni tashkil qilib, kirish, ikki bob, beshta paragraf, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Malakaviy bitiruv ishning amaliy ahamiyatligi.

Ushbu malakaviy bitiruv ishidan ijtimoiy-gumanitar yo'nalishi talabalari, fakultetlarda o'tiladigan «O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti» va «Siyosatshunoslik» fanlari, ma'naviyatchi mutaxassislar va ma'naviyat bo'limlari manbaa va ma'lumot sifatida foydalanilinishlari mumkin.

I BOB. SIYOSIY MADANIYAT TUSHUNCHASI

1.1 MADANIYAT TIZIM SIFATIDA, SIYOSIY MADANIYAT UNING ASOSIY ELEMENTI SIFATIDA.

Garchand bugungi kunda siyosiy madaniyatga mansub deb hisoblanuvchi narsalarning ko'pi o'tmish muttafakkirlari tomonidan (Konfusiylar, Aflotun, Arastu) tavsiflagan bo'lsada, atamaning o'zi keyinroq 18-asrlarda nemis ma'rifatparvar faylasufi I.Geder asarlarida paydo bo'ldi. Sayosiy hodisalarning bu guruxini tavsiflovchi nazariya yesa o'tgan asrning 50-60-yillarida, g'arb politologik an'anasi oqimida vujudga keldi. Uni ishlab chiqishda katta hissani Amerikalik olimlar G.Almond, S.Verba, L.Pay, U.Rozenbaum, inglizlar R.Rouz va D.Kavanax, nemis nazariyotchilari K.fon Boyme, fransuzlar M.Dyuverje va R.J.Shvarsberg, gollandiyalik I.Inghar va boshqalar¹.

Siyosiy madaniyat nazariyasi siyosiy tadqiqotlar instusional tahlilning cheklanganligini yengish imkonini beradi. Jumladan, u shaklan bir xil davlat hokimiyati institutlari turli mamlakatlarda ba'zan butkul boshqacha faoliyat ko'rsatishini tushuntirish imkonini ham beradi. Siyosiy madaniyat nazariyasi o'z diqqatini odamlar moyil qadriyatlar, mahaliy afsonalar, ramzlar va stereotiplar mazmunni, inson mentalitet iva shu singari hodisalarga qaratib, fuqarolar va institutlarning siyosiy xulq – atvori sabablarini chuqurroq o'rganish, ko'plab ixtiloflar sababini aniqlashga imkon yaratadi. Bularning hammasini siyosat uchun an'anaviy sabablar bilan (hokimiyat uchun kurash, rusurslarni qayta taqsimlash va h.k.) tushuntirib bo'lmas yedi.

Fanda siyosiy madaniyatni talqin yetishning ikki yo'nalishi shakllanadi. Ba'zi olimlar uni siyosatning subyektiv mazmuni bilan bog'laydi va barcha ma'naviy hodisalar (G.Almond, S.Verba, D.Divayn, Yu.Krasnov v. b. lar) va ramzlar (A.Dittmer) birligi, deb tushuntirishadi. Shuning uchun ham ularning siyosiy madaniyatni siyosat va hokimlik munosabatlaridagi subyektiv jihatlarni ifodalovchi «yeski g'oya uchun yangi atama» tarzda baxolashlarni – tushunarli.

¹ Қаранг: Пугачев В.П. Соловев А.И. Политологияка кириш. Т.: «Янги аср авлоди», 2004. 386-387.б

Olimlarning boshqa guruhi siyosiy madaniyatda me'yoriy talablarning namoyon bo'lishida (S.Vayt), tipik xulq – atvorlarning birligini (J.Pleyno), siyosiy faoliyat uslubini (U.Rozenbaum) ko'rib, uni siyosatning aloxida, o'ziga xos subyektiv ko'rinishi, deb hisoblaydilar.

Bu yondoshuv siyosiy madaniyatni insonning tub tasavvurlari, ya'ni davlat bilan o'zaro aloqalari haqidagi qadriyatli tasavvurlari tarzida tushuntirishda juda izchillik namoyon bo'ladi. Insonning amaliy faoliyati bilan siyosiy madaniyat vaziyat yoki kayfiyatlar o'zgarishlarga bog'liq bo'lmagan, inson xulqatvoridagi yeng barqaror va o'ziga xos belgilarni ifodalaydi. Natijada, siyosiy madaniyat inson faoliyatining ichki qirralarini namoyon yetuvchi, siyosiy hokimiyat sohasida individ faoliyati uslubi sifatida (N.Shapiro, N.Sharan) chiqadi¹.

Inson siyosiy faoliyatining uslubi uning yeng barqaror tasavvurlari va hokimiyat bilan aloqalarining yeng tipik shakllarini aks yettiradi hamda u davlat hayotiga oid umume'tirof yetilgan me'yorlar va an'analar qay darajada qabul qilingan va o'zlashtirilganligini, o'z huquqi va yerkinliklarini amalga oshirishda kundalik faollik jarayonida va stereotiplashgan uslublar uyg'unlashishini va h.k. namoyish qiladi.

Siyosiy o'yin fuqarolik faoliyati standartlarining inson tomonidan o'zlashtirilgan va o'zlashtirilmagan me'yorlari o'rtasidagi uzilish (qarama-qarshi) siyosiy madaniyat rivojlanishning muhim ichki manbai bo'lib hisoblanadi.

Ayni vaqtda qilinadigan ishlarning qadriyatli va shu bir lahzalik (hissiyot) motivasiyasi birgalikda mavjud bo'lishi, inson maqsadlari va faoliyatining ma'lum darajada mos tushmasligi – siyosiy madaniyatga ichki ziddiyatlarni kiritadi, unda «mantiqiy», «nomantiqiy» va «mantiqdan tashqari» (V.Pareto) yelementlar uyg'un mavjudligiga yo'l ochadi, individning faol fa sust siyosiy ishtiroki shakllarining bir vaqtda qo'llab – quvvatlanishiga imkon beradi.

Fuqarolarning hokimiyat institutlari tizimi qo'llab – quvvatlovchi ommaviy siyosiy faoliyat uslubi, ya'ni jamiyat siyosiy madaniyat alohida murakkabligi bilan ajralib turadi. Bu siyosiy niyatda alohida murakkabligi bilan ajralib turadi. Bu

¹ Қаранг: Пугачев В.П. Соловев А.И. Политологияка кириш. Т.: «Янги аср авлоди», 2004. 388-390.б

siyosiy madaniyat siyosiy tilga me'yorlar, stereotiplar, muloqot usullari va h.k. larni (tegishli atamalar, ramzlar va h.k. larda) muhrlab, davlatchilikning ajralmas belgilari (bayroq, gerb, madhiya)ga alohida ahamiyat baxsh yetadi. Shu tariqa siyosiy madaniyat jamiyatni birlashtirishga, yelita va yelektorat munosabatlarining barqarorligini ta'minlashga harakat qiladi.

Odamlar hokimiyatdan begonalashgan va o'zlari uchun muhim siyosiy maqsadlar va qadriyatlarga amal qila olmaydigan jamiyatlarda rasmiy (davlat institutlari qo'llab - quvvatlovchi) siyosiy madaniyat bilan axolining kupchiligi tayanadigan qadriyatlar (va ularga muvafiq xulq –atvor shakllari) o'rtasida ziddiyat vujudga keladi.

Masalan, Sharqiy Yevropaning bir qator mamlakatlarida «sossialistik qurilishning» rasmiy maqsadlari ko'p darajada davlat muassasalari bosimi ostida tadbiq yetilgan, lekin milliy qadriyatlar va an'analar tizimiga uyg'un Kira olmagan yedi. Shuning uchun ham sossialistik tartib bilan xayirlashish ham u yerda deyarli og'riqlarsiz, Mayin inqiloblar ko'rinishida o'tdi¹.

Lekin turli mamlakatlarda – rasmiy va amaldagi siyosiy madaniyat o'rtasida muxim tafovutlar bo'lmaganida ham – ijtimoiy guruxlar va individlar tomonidan siyosiy tizimda qabul qilingan me'yorlar va ananalarni tanolish darajasida tafovutlar bor. Bu – siyosiy subyektlarning turli madaniy darajaga yegaligini ko'rsatadi. Inson hayotini qadriyat sifatida mensimaslik, fuqaro huquqlarini inkor yetish g'oyalari keng tarqalgan, hukumron tartib odamlarni bir – biriga nisbatan qo'rquv va adovat his yetishga majbur yetuvchi, ijtimoiy ongga zurlik mafkurasini singdiruvchi jamiyatlarda – siyosiy madaniyat yaxlidligi yo'qoladi. Siyosiy ishtirokning madaniya negizdlari va usullari o'z o'rnini fuqarolarning hokimiyat bilan uzgacha o'zaro ta'sirlariga beradi. Fashistlik, irqiy, shovinistik harakatlar va terrorizm, qarshilikning oxlokratik shakllari va hokimiyatning totalitar zurligi siyosiy xaytning madaniy makonini tutib turishga va kengaytirishga qodir yemas.

¹ Алиев Б.А., Рафиков Г.А., Султонов Т., Рахмонов Б. Ўзбекистонда демократик жамият куриш назарияси ва амалиёти фанидан ўкув кўлланма. Т.:2005. 56.6

Aksincha, ular siyosatda madaniy bo'shliq yaratib, insonlar hamjamiyatini yemirishga olib boruvchi jarayonlarni keltirib chiqaradilar.

Siyosiy madaniyat, shuningdek, fuqarolarning xokimiyatda ishtirokining siyosatgacha (Potestar) shakllaridan ham farq qiladi. Ma'lumki, ular yetnos birdamligi, urug'chilik mifologiyasi, jamoaning, «qondosh» ligi kabilar beruvchi irrasional yo'nalishlarga asoslanadi. Ushbu qarash tarafdorlari «umumiy manfaat» va intizomni bilmay (I.Ilin), yerkinlikni «beboshlik tantanasi» (S.Frank) tarzida tushunib, sinfiy va ijtimoiy xudbinlik manbai bo'lib xizmat kiladilar, nosog'lom milliy manmanlik tarqalishi va jamiyatda zo'rlik avj olishga xizmat qiladilar¹.

Siyosatda fuqarolar ishtirokining barcha shakllarini madaniyat na'munalari asosida qurish mumkun yemasligini, shuningdek, hokimiyat insitutlarining umume'tirof yetilgan qadriyatlar bilan belgilanishi darajasi ham har xilligini ye'tiof yetib, siyosiy madaniyat o'zining mavjudlik makonini kengaytirish yoki toraytirish qobilyatiga yega yekanligini ham tan olish kerak. Shuning uchun ham, umuman olganda, u umumiy siyosiy hodisa bo'la olmaydi va jarayonning barcha bosqichlari hamda davrlari uchun xos yemas. O'z qonuniyatlari asosida rivojlanib borib, u hokimimyatni tashkil yetish shakllariga uning institutlari tarkibiga, davlatlararo munosabatlar tabiatiga ta'si ko'rsatishi mumkin.

Insoniy siyosiy faoliyatning qadriyatli mazmuniga ko'ra belgilanganligini o'zida mujassam yetib, siyosiy madaniyat uning hokimligi ahamiyatiga yega manfaatlari o'ziga xosligi tushuna olish, maqsadga yerishish yo'lida siyosiy o'yin qoidalariga ko'ra harakat qilish, shuningdek, o'z faoliyatni yehtiyojlar va tashqi shart – sharoitlar o'zgarishiga qarab o'zgartira olish qobiliyatini anglatadi. Siyosiy madaniyat insonning ma'naviy intilishlari va moyilliklari shaklida amaliy faoliyatning muayyan shakllarida, shuningdek, institusional ko'rinishda (ya'ni siyosiy va davlat boshqaruvi organlarining tuzilishi, ularning funksiyalarida) namoyon bo'lishi mumkin. Barcha qadriyatlarni bir vaqtning o'zida amalga oshirib

¹ Алиев Б.А., Рафиков Г.А., Султонов Т., Рахмонов Б. Ўзбекистонда демократик жамият куриш назарияси ва амалиёти фанидан ўқув кўлланма. Т.:2005. 59.б

bo'lmisligi tufayli (ayniqsa, institusional tarzda) siyosiy madaniyatning yuqorida aytilgan shakllari o'rtasida doim ziddiyatlar bor.

Umuman, siyosiy madaniyat siyosiy jarayonlar va institutlarga uch tomonlama ta'sir ko'rsata oladi. Birinchidan, uning ta'sirida siyosiy hayotning an'anaviy shakllari qayta – qayta yaralishi mumkin. Bu imkoniyat hatto tashqi sharoitlar va hukmron tartib tabiati o'zgargan hollarda ham saqlanib qoladi. Masalan, an'anaviy jamiyatlarda (agrar, oddiy qayta ishlab chiqarish va tabiiy aloqalarga qurilgan) siyosiy madaniyat hatto islohotlar davrida ham hokimiyatning avvalgi, arxaik tuzilishini qo'llab – quvvatlaydi va siyosiy tizim zamonaviylashuvi hamda demakratlashuviga qarshilik ko'rsatadi. Siyosiy madaniyatning shunday qobiliyati ko'pchilik inqiloblar (ya'ni tezkor, ko'chki sifat o'zgarishlar) yoki avvalgi tartibga qaytish bilan (aholi o'zi uchun yangi maqsad va qadriyatlarni moslashtiraolmasligini anglatadi) yoki terror (odamlarni ular uchun yangi siyosiy rivojlanish tamoyillarini amalga oshirishga majbur qilishning yagona yo'li) bilan yakunlanishi sabablarini yaxshi tushintiradi¹.

Ikkinchidan, siyosiy madaniyat jamiyat uchun yangi, noan'anaviy ijtimoiy va siyosiy hayot shakllarini vujudga keltirish, uchinchidan yesa, avvalgi va istiqboldagi siyosiy tartib yelementlarini uyg'unlashtira olishi mumkin.

Siyosiy madaniyat siyosiy hayotda muayyan funksiyalarni bajaradi. Ulardan yeng muhimlari quyidagilar:

- **identifikasiya**, inson o'zining qaysi guruxga mansubligini anglashi va Ushbu jamoa manfaatlarini ifodalash va himoya qilishda ishtirokining o'zi uchun maqul usullarini aniqlashi bilan bog'liq;

- **oriyentasiya**, insonning siyosiy hodisalar mohiyatini bayon yetishga intilishi, muayyan siyosiy tizimda huquq va yerkinliklarni amalga oshirishda o'zining imkoniyatlarni tushuntirishga harakat qilishi bilan bog'liq;

¹ Алиев Б.А., Рафиков Г.А., Султонов Т., Рахмонов Б. Ўзбекистонда демократик жамият куриш назарияси ва амалиёти фанидан ўкув кўлланма. Т.:2005.67.б

- **moslashish**, insonning o'zgaruvchisi siyosiy muhitga, huquqlari va hokimlik vakolatlarini amalga oshirish sharoitlariga moslashishiga intilishi bilan bog'liq;

- **ijtimoiylashuv**, inson hokimiyatning u yoki bu tizimda o'z fuqorolik huquqlarini, siyosiy funksiyalar va manfaatlarini amalga oshirishga imkon beruvchi muayyan ko'nikma va xususiyatlarga yega bo'lishi bilan bog'liq;

- **integrasiya** (aksi - dizintegrasiya) turli guruxlarga muayyan siyosiy tizim doirasida birgalikda mavjud bo'lishni ta'minlash, davlat va umuman uning jamiyat bilan o'zaro munosabatlari butunligini saqlash bilan bog'liq;

- **kommunikasiya**, hokimiyatning barcha institutlari va subyektlarining o'zaro ta'siri va aloqalarini umume'tirof yetilgan atamalar, ramzlar, steretiplar va axborotning boshqa vositalari hamda muloqot tili negizida ta'minlash bilan bog'liq¹.

Turli tarixiy sharoitlarda–ko'pincha nobarqaror siyosiy jarayonlarda– siyosiy madaniyatning ayrim funksiyalari pasayishi va, hatto, o'z faoliyatini to'xtatishi mumkin. Xususan davlat hayotining siyosiy meyorlari va an'analarining ahamiyati sezilarli pasayishi natijasida turli ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi, ayniqsa, hukumat siyosatiga qarshi bo'lganlari bilan munozaralar keskinlashishi muqarrar bo'lib qoladi¹. Boshqa tomondan, o'tish jarayonlarida ko'pincha siyosiy madaniyatning aholi uchun noan'anaviy qadriyatlar va maqsadlarga asoslangan boshqaruv tizimlarini yemirish qobiliyati ham ortadi.

Siyosiy madaniyat – ko'p tarkibli, ko'p darajali hodisaladir. Siyosiy madaniyatning turli ijtimoiy va siyosiy jarayonlar bilan xilma-xil aloqalari uning murakkab tuzilishi va tashkil yetilganini belgilab keladi. Siyosiy madaniyatning turli ichki tuzilmalari subyektlarning siyosiy xulq-atvori shakllanishi texnologiyalari, madaniy yaxlitlik (yani alohida bir mamlakat, mantiqqa siyosiy madaniyat), turli kichik madaniyat tuzilmalar mavjudligini aks yettiradi va h.k.

¹ Т. Султонов, А. Хайитов. Демократик жамият сари: парламент сайловлари ва сиёсий партиялар. ТДИУ 2005. 31. 6

¹ Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. – T.: O'zbekiston, 1999, 39 – bet

Siyosiy madaniyat tarkibining biri inson qadriyatli intilishlarning turli usullarini dunyoqarash (bunda siyosat haqidagi tasavvurlarni o'zining dunyo haqidagi tasavvurlari tizimiga joylaydi) darajasida, fuqarolik (bundan inson davlat hokimiyati organlari hamda shunga muvofiq huquq va yerkinliklarni himoya qilish borasida o'z imkoniyatlarini anglab, siyosiy maqomini tushunishning sifat jihatdan yangi darajasini ishlab chiqadi) darajasida, shuningdek, qadriyatli tasavvurlar doirasidagi siyosiy darajada (butun inson tartibot boshqaruvidagi muayyan shakllarga, ittifoqchilari va raqiblariga o'z munosabatini ishlab chiqadi) ochib beradi.¹

Bu darajalarning har birida inson tasavvurlari qarama-qarshiliklarga to'la bo'lishi mumkin. Muayyan siyosiy hodisalarga munosabat tezroq, dunyoqarashga oid tamoyillar yesa sekinroq o'zgarishi mumkin. Buning natijasida yangi maqsad va qadriyatlarni o'zlashtirish, tarixni qayta anglash v.h.lar bir tekisda amalga oshmaydi. Bularning hammasi siyosiy madaniyat shakllanishi va rivojlanishiga qo'shimcha murakkablik va ziddiyatlik olib kiradi. Qadriyatli intilishlar muvofiqligi darajasi yesa siyosiy madaniyat yaxlitligi tabiati va ichki muvozanati yo'qligini bevosita belgilab beradi.

Odamlar u yoki bu siyosiy yo'nalishlar va xulq – atvor uslublarini tanlashlariga juda katta ta'sirini ularning ijtimoiy (sinflar, qatlamlar), milliy (yetnos, millat, xulq), demokratik (ayollar, yerkaklar, yoshlar, qariyalar), xududiy (muayyan tuman va mintaqa aholisi), rolga ko'ra (yelita va yelektorat) v.b. (diniy, referent va h.k.) guruxlarga mansubligi o'tkaziladi. Odamlarning qadriyatli yo'nalishlarini (va shunga muvofiq, xulq – atvor shakillarini) gurux maqsad va ideallari asosida ishlab chiqishlari siyosiy madaniyatni subyekt madaniyatlar birligiga aylantiradi. Ular, o'z navbatida, o'z subyektlarida hokimiyat va davlat, hukumron partiyalarga munosabatda, siyosiy ishtirok uslublarida muhim (muhim bo'lmagan) farqlar mavjudligini belgilaydi.¹

¹ Т. Султонов, А. Хайитов. Демократик жамият сари: парламент сайловлари ва сиёсий партиялар. ТДИУ 2005. 33. б.

¹ Т. Султонов, А. Хайитов. Демократик жамият сари: парламент сайловлари ва сиёсий партиялар. ТДИУ 2005. 39. б

Muayyan mamlakatlar va davlatlarda yeng katta ta'sirga har xil submadaniyatlar yega bo'lishi mumkin (masalan, Shimoliy Irlandiyadagi diniy yoki Orzarbayjondagi yetnik madaniyat tizimlari). Umuman yesa, jamiyat hayoti va siyosiy rivojlanishi uchun yeng katta ahamiyatiga yetakchi va yelitalar submadaniyati yega, chunki u siyosiy tizimini boshqarish bo'yicha maxsus funksiyalarini shu sub'ktlar tomonidan bajarilishi tabiatini belgilaydi.

Shu ma'noda, ushbu submadaniyatning yeng muhim yelementlari qatoriga yetakchilar va yelita vakillarining oddiy fuqarolar manfaatlarini bayon yetish (va, avvalo, o'z ijtimoiy mavqyeini shaxsiy maqsadlarga yerishish vositasiga aylantirmaslik), ularning malakaviy boshqaruv sifatlari, shuningdek, o'z obro'lariga yega bo'lish va uni saqlab turish, jamoatchilikni ular hokimiyat pog'onalarida yegallab turgan yuqori mavqyelariga munosib yekanliklariga ishontirish kabi qobiliyatlari kiradi.

1.2 SIYOSIY MADANIYAT TADQIQOT VA AN'ANALAR

Siyosiy madaniyat ijtimoiy voqyeilik sifatida sinflar va davlatlarining paydo bo'lishi bilan yuzaga kelgan. Shu bilan birga siyosiy hayot madaniyati sinflarining yuzaga kelishdan avval qadimgi Sharqda, antik Gresiya va Rimda shakllangan¹.

Siyosiy madaniyat odamlarning xulq – atvoriga va turli tashkilotlarning faoliyatiga ta'sir ko'rsatadi, ularning ichki va tashqi xodisalarni idrok yetish, siyosiy shaxsning jamiyat siyosiy xayotida tutgan o'rniga baxo berishda mezon hisoblanadi. U siyosiy yo'lini ishlab chiqish, aniq siyosiy boshqaruv qarorlarini qabul qilish va ro'yobga chiqarish uchun keng istiqbol yo'llarini ochadi.

Siyosiy madaniyat muammosi majmui o'ta murakkab va ko'p qirralidir. Siyosiy madaniyat masalasida adabiyotlarda turlicha fikrlar mavjud. Siyosiy madaniyat ma'naviy madaniyatlar singari o'ziga xos mustaqil turidir.

Yuqorida bayon qilingan fikrlardan kelib chiqqan holda, siyosiy madaniyatga shunday ta'rif berish mumkin: **Siyosiy madaniyat** mavjud ijtimoiy birlikka xos bo'lgan siyosiy ong va xulq – atvor majmuidir. Ammo bunday ta'rif siyosiy madaniyatning mazmunini to'la ochib bera olmaydi. Buning uchun siyosiy madaniyatning asosiy tarkibiy qismlariga ye'tiborni qaratish lozim bo'ladi.

Siyosiy madaniyatning tarkibiy qismlariga, siyosiy tajriba, siyosiy ong, siyosiy qadriyatlar, siyosiy ko'rsatma, siyosiy xulq – atvor, siyosiy belgilar, ramzlarni kiritish mumkin. O'z navbatida mazkur yelementlarning o'zi bir qancha komponentlarni qamrab oladi.

1. Siyosiy tajriba: a) xalqning o'ziga xos milliy – ma'naviy qadriyatlari; b) mentaliteti; v) tarixiy xotirasi va ananalari; g) milliy davlatchilikni amalga oshirish tajribasi, o'z milliy qadriyatlaridan kelib chiquvchi siyosiy mo'ljallari.

2. Siyosiy ong: a) mafkuraviy, g'oyaviy komponent; b) yemosional – psixologik komponentlardan iborat.

Siyosiy ong yelementi jamiyatda hukumron bo'lgan yoki birorta ijtimoiy guruxga xos bo'lgan, jamiyat siyosiy hayotning turli jixatlariga singib ketgan qarashlar

¹ Пугачев В.П. Соловев А.И. Политологияка кириш. Т.: «Янги аср авлоди», 2004, 392.6

hisoblanadi. (Masalan, siyosiy tartibot, qarorlarni qabul qilish, siyosiy hayotdagi bilimdonlik).

3. Siyosiy qadriyatlarning mazmuni siyosiy voqyeilikdagi shaxas, gurux jamiyat qadriyatlari tuzilmasi bilan chambarchas bog'liq.

4. Siyosiy ko'rsatma- subyektning siyosiy voqyelikka munosabatlaridir. Bu siyosiy bilimni qabul qilishga intilish, siyosiy faoliyatga bo'lgan faol va sust ye'tibor, siyosiy faoliyatning turli jiharlariga bo'lgan munosabat.

5. Siyosiy xulq-atvorni shaklantirishda siyosiy an'analar muhim rol o'ynaydi. An'analarda jamiyat maqsadlari va manfa'atlariga javob beradigan o'tmish siyosiy tajribalari jamlangan bo'ladi. Siyosiy xulq-atvor: a) siyosiy vaziyat, jarayondagi xatti – xarakat, faoliyat yo'nalishi; b) ijtimoiy – siyosat faoiyat uslubining namunalari, turlari, xususiyatlari.

6. Siyosiy belgilar, ramzlar (simvol) o'zida jo'shqinlikni aks yettirgan xolda, kishini o'ziga jalb yetish xususiyatiga yega bo'ladi. (Masalan, Teylor siyosiy belgilardan ustunlik bilan foydalangan, Angliyada nuhim siyosiy belgi monarxiya va h.k)¹.

Yuqorida bayon qilingan fikrlarga asoslangan holda, siyosiy madaniyatning keng ma'nodagi ta'rifini keltirish mumkin **Siyosiy madaniyat** o'z mazmuni va mohiyatiga ko'ra odamlar xayot faoliyatining sinfiy, ijtimoiy xosilasi, ularning siyosiy bunyodkorligi, faoiyati hisoblanib, sinflar, qatlamlar, milliy tuzilmalar, guruxlar va birliklar tomonidan o'zlashtirish jarayonini aks yettiradi.

Siyosiy madaniyat jamiyat siyosiy xayotida bir qancha muxim **vazifalarni** bajaradi.

Birinchidan, siyosiy madaniyat jamiyatda milliy manfaatlarni ro'yobga chiqarishni siyosiy jixatdan ta'minlashda muxim rol o'ynaydi. Bu vazifaning mazmuni ijtimoiy-siyosiy formasiyaning rivojlanishi, jamiyat taraqqiyoti darajasiga qarab o'zgaradi.

Ikkinchidan, siyosiy madaniyat sinflar, ijtimoiy guruxlar, qatlamlar va milliy tizimlar manfaatlar manfaatlari yo'lida siyosiy munosabalarining qayta

¹ Пугачев В.П. Соловев А.И. Политологияка кириш. Т.: «Янги аср авлоди», 2004, 393-394.б

o'zgarishi va qayta o'zlashtirish vazifasini bajaradi. Bu vazifani amalda tadbiq yetish bilimlarni ijodiy qo'llash, jamiyat siyosiy xayotini, siyosiy fikrlar, davlat xokimiyati organlari va boshqa siyosiy kuchlarning faoliyatini chuqur anglab yetish bilan bog'liq.

Uchinchidan, siyosiy madaniyat tartibga soluvchilik vazifasini o'taydi. Bunday vazifa barqaror siyosiy tizm, siyosiy tashkilotlar bo'limini ta'minlaydi. Siyosiy madaniyat jamiyatda barqarorlikning qaror topishiga ko'maklashadi.

To'rtinchidan, siyosiy madaniyat tarbiyaviy vazifani bajaradi. Yuksak, maqsadlar, qadriyatlar, normalar asosida shaxs siyosiy madaniyatini shakllantirish uning mohiyatini tashkil yetadi. Bu vazifa siyosiy faollikni, fuqarolik masuliyatini tarbiyalaydi, ijyimoiy-siyosiy faoliyat ko'nikmalarni shakllantiradi.

Beshinchidan, siyosiy madaniyat aloqa vazifasini amalga oshiradi. Bunda, u fuqaroning siyosiy tizim va jamiyatning boshqa azolari bilan aloqasi shakli sifatida namoyon bo'ladi. Bu vazifani amalga oshirishda ta'lim – tarbiya tizimi, ommaviy axborot vositalari, madaniy-okartuv muassasalari, adabiyot va san'at muxim rol o'ynaydi.

Oltinchidan, siyosiy madaniyat oldindan aytib berishlik vazifasini bajaradi¹.

Siyosiy madaniyatga xos talablarga quyidagilar kiradi:

- 1) Jamiyatdagi voqyea, xodisalarga bosiqlik bilan munosabatda bo'lish.
- 2) Voqyea-xodisalarning sabablarini to'g'ri taxlil qilish.
- 3) Voqyea-xodisalarga nisbatdan obyektiv va adolatli munosabatda bo'lish.
- 4) Shaxsiy fikrini davlat, boshqa siyosiy tashkilotlar fikridan ustun qo'ymaslik.
- 5) Davlat siyosati, davlat tili, madaniyati, urf-odatleri, turmush tarziga xurmat bilan qarash².

Siyosiy madaniyat yuqori onglilik, ma'naviy boylik maxsulidir. Siyosiy ong qanchalik yuqori bo'lsa, siyosiy madaniyat darajasi xam shunchalik yuqori bo'ladi.

¹ Пугачев В.П. Соловев А.И. Политологияка кириш. Т.: «Янги аср авлоди», 2004, 396.б

² Пугачев В.П. Соловев А.И. Политологияка кириш. Т.: «Янги аср авлоди», 2004, 38.б

Siyosiy madaniyat yelementlari:

Siyosiy xissiyot, ko'nikmalar, bilimlar, qarashlarning mazmuni, xarakteri, sistemasi va darajasida ko'rinadi.

Siyosiy xulq-atvor va fuqarolarning ijtimoiy – siyosiy xayotda qatnashuvida bilinadi.

Siyosiy an'analar, odatlar, normalar, siyosiy xayotning bir xil tipi va ko'rsatmalarida mavjud bo'ladi.

Siyosiy munosabatlar, siyosiy xayotning rivojlanish darajasi bilan belgilanadi.

Siyosiy madaniyat ijtimoiy ongning aktiv qismidir. Aslida ijtimoiy ongning 3 turi mavjud:

- A) ijtimoiy ongning past saviyasi tipi;
- B) siyosiy faoliyatda ishtirok yetmaydigan tipi;
- C) ijtimoiy tabaqalarni belgilash, siyosiy qarorlar qabul qilishda ishtirok yetadi.

Siyosiy madaniyat sinfiy jamiyat tashkil topgandan keyingina shakllana boshlaydi. Siyosiy madaniyat aslida uzoq o'tmishdan tortib to xozirgi kungacha insoniyat taraqqiyoti natijasida jamlangan olamshumul tarixiy tajribaning moxiyati, mag'zi, javxaridir.

«Agar iqtisodiy o'sish jamiyatimiz tanasi bo'lsa, ma'naviyat- ma'rifat va siyosiy ong yetukligi uning ruxi, aqli va qonidir», degan yedi Pirizidentimiz Islom Karimov¹.

Siyosiy madaniyatning 2 tipi mavjud:

A) An'anaviy siyosiy madaniyat (diniy jixatdan asoslangan) yoki yopiq madaniyat tipii ham deyiladi.

B) Yuqari tabaqa siyosiy madaniyati, yoki ochiq madaniyat tipii. Bu o'zgaruvchan progmatik bo'ladi.

¹ Karimov I.A. O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari. "Xalq so'zi", 2002 yil 30 avgust

Hozirgi zamon politologlari siyosiy madaniyatning 3 ta darajasi borligini bayon yetganlar. Bular:

1. Tafakkur qilish, anglash darajasi.
2. Fuqarolik darajasi.
3. Siyosiy daraja.¹

Siyosiy madaniyatning quyidagi modellari mavjud:

1. «Totolitar - avtoritar» modnli.
2. «Liberal - demokratik» modeli.
3. «Sharqona siyosiy madaniyat» modeli.

Siyosiy madaniyat turlari, ko'rinish va shakllari:

1. Ibtidoiy: (boshlang'ich) turi – iptmdoiy jamoadan quldorchilik tuzumiga o'tish davrida shakllangan. Xozirgi siyosiy madaniyat uning asosida paydo bo'ladi va rivojlanadi. Inson tabiat oldida ojizroq yedi. Shu sabab ular to'da, gurux, tabaqa, yelat, millat, jamiyat birikmalarida uyushib yashadi, bu siyoisy hayot xozir ham bor.

2. Fuqarolik turi – yeng keng tarqalgan, har bir ijtimoiy siyosiy tuzum doirasida amal qilingan asosiy tur bo'lib, rasmiyo siyosiy munosabatlar jarayonini qamrab oladi. Fuqarolik siyosiy madaniyati umumjamiyat va umuminsoniy siyosiy madaniyatning tarkibiy qismidir. Shaxs bilan gurux manfaatlari, yezgulik bilan xudbinlik va h.k.

3. Faollik turi. Faol siyosiy madaniyatning tub mohiyati jamiyat istiqbolini oldindan idrok yetib, uni ilmiy –metodik taxlil qila bilish. Kelajak siyosiy xayot yo'nalishlarini oqilona hisobga olingan xolda, sodir bo'layotgan siyosiy jarayotlar oqimini obektiv va chuqur ilmiy nazariy taxlil qilish asosida ravojlantirish bilan birga istiqbol maqsadlarini aniq ifodalash yuksak darajada amal qiladigan siyosiy madaniyatning asosiy mazmunini tashkil yetadi. (Biror siyosiy partiyaga a'zo bo'lishi bilan ham harakterlanadi, siyosiy mafkurasi, siyosiy ruxiy xolati va h.k.).

¹ Султонов Т., А. Хайитов. Демократик жамият сари: парламент сайловлари ва сиёсий партиялар. ТДИУ 2005. 66.6

4. Guruxiy shakli. Guruxiy siyosiy madaniyat bir ijtimoiy guruxning tub maqsad-manfaatlari, talab yehtiyojlarining aniq ifodasi sifatida namoyon bo'ladi. Siyosiy partiyalar va ijtimoiy – jamoat tashkilotlari siyosiy xatti – harakatlarning mazmuni, ko'lam, darajasi bilan ham belgilanadi.

5. Ommaviy shakli. Siyosiy madaniyatning ommaviy shakli guruxiy siyosiy madaniyatning namoyon bo'lishiga nisbatdan kamroq, oldindan rejalashtirilmagan xolda jamiyat siyosiy hayotining keskin pallalarida namoyon bo'ladi. Siyosiy faoliyat keskin o'zgargan paytlarda, masalan: narx–navo oshirilishi, siyosiy arboblarning quvg'in qilinishi tufayli omma noroziliklarida ommaviy siyosiy madaniyat amal qilishiga olib kelishi mumkin.

6. Alohida – yakka ko'rinish. Siyosiy madaniyatning yakka shaklida namoyon bo'lishi u yoki bu jamiyat muayyan siyosiy maqom va mavqyega yega bo'lgan ayrim shaxslar faoliyatlarida o'z ifodasini topadi. Bunda uning siyosiy ongi darajasi, siyosiy mafkuraning maqsad – yo'nalishlari o'z ifodasini topadi.

7. Demokratik siyosiy madaniyat turi.

8. Avtoritar siyosiy madaniyat turi.

9. Totalitar siyosiy madaniyat turi¹.

O'zbekistonda mustaqillik davrida siyosiy madaniyat (aniqrog'i shaxsning, raxbarning siyosiy madaniyati) masalalariga sezilarli darajada ye'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa Prezident Islom Karimov asarlarida ishlab chiqilgan nazariy qoidalar va aniq ko'rsatmalar asosida shaxsning, raxbarning siyosiy madaniyatni yanada oshirishga katta ahamiyat berilmoqda. Shu bilan birga xozirgi kunda yoshlarning, ayniqsa, talaba – yoshlarning ham siyosiy madaniyatini oshirishga katta ye'tibor berilmoqda. 1999 yil 16 – fevral Toshkentda, 2001 yil 11 – sentyabridagi AQShdagi terroristik xurujlardan keyingi vaziyat yoshlar ma'naviyatini, ularning siyosiy ongli va dunyoqarashini yanada rivojlantirishni kun tartibidagi yeng muhim vazifalardan biriga aylantirmoqda².

¹ Бекмуродов А. Ш. , Алиев Б., Бобоев А ва б. Ўзбекистонда парламентаризим тараққиёти. Тошкент. 2005. 74.б

² Karimov I.A. O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari. Ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining to'qqizinchi sessiyasidagi ma'ruza. Xalq so'zi, 2002 yil 30 avgust

II. BOB. SIYOSIY MADANIYAT VA UNING QADRIYATLARI

2.1. JAMIYATDA SIYOSIY MADANIYATNING QADRIYATLARI ASOSI

Inson uchun tabiiy qadriyatlar bilan bir qatorda ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'naviy, axloqiy qadriyalar ham katta ahamiyat kasb yetadi.

Bashariyat ko'p ming yillik tarixi davomida yekin, baxtli va go'zal hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan xilma—xil qadriyatlarni yaratdi, inson, uning huquqiy va yerkinliklarni himoya qiladigan qonunlar, siyosiy tashkilotlarni bunyod yetdi. Insonning go'zal yashashi uchun zarur bo'lgan badiiy—yestetik kadriyatlarni rivojlantiradi, kishilarning bir—biriga va jamiyatga bo'lgan munosabatlarini belgilab beradigan axloqiy qoidalar majmuasini joriy yetdi va hokazo. Mazkur ijtimoiy—siyosiy, madaniy-ma'naviy va axloqiy qadriyatlar jamiyat taraqqiytida salmoqli o'rin yegallab, kishilarning insoniy fazilatlarini yuksaltirishda katta xizmat qilib kelgan va xozir ham xizmat qilib kelmoqda. Lekin, shu bilan bir qatorda, inson o'zi yaratgan ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'naviy, axloqiy qadriyatlarni ko'p hollarda poymol qilib kelayotganligini ham tan olishimiz kerak. qonunbuzarlik, axloqsizlik, mnllatimizning urf-odat va ananalariga zid keluvchi xatti-harakatlarning aholi, ayniqsa, yoshlar ichida avj olib kotayotgani bunga misol bo'la oladi. Bularning oldini olish hozirgi kunda jamiyatimiz oldida ko'ndalang turgan dolzarb vazifadir¹.

Kishilarni qadriyatlarga iste'molchi yoki kuzatuvchi sifatida qarash kayfiyatidan xoli yetib, aksincha ularni yanada ko'paytirish, yuksaltirish payida bo'lishlariga yerishishga alohida ye'tibor berish kerak. Ma'lumki, hayotda hyech bir narsa abadiy yemas. Bu qadriyatlarga ham taalluqlidir. Shunday yekan, ularni doimo boyitib, rivojlantirib, ko'paytirib, yangilab turmog'imiz darkor.²

Kadriyatlar katta ijtimoiy – siyosiy, falsafiy, tarbiyaviy ahamiyatga yega. Ular o'tmish bilan hozirgi kun o'rtasidagi vorisiylikni ifodalaydi.

¹ Odilqoriyev X., G'oyibnazarov Sh. Siyosiy madaniyat. – T., 2004. 46 b

² Каримов И.А. Янги ҳаётни эскича қараш ва ёндашувлар билан қуриб бўлмайди. Т.: «Маърифат» газетаси, 2005 йил 19 феврал

Bu o'lkada yetishib chiqan buyuk mutafakkirlar jahon ilm-fani va madaniyatini o'z kashfiyotlari va o'lmas asarlari bilan ijodiy boyitib, yuqori cho'qiga ko'tardilar, uning keyingi taraqqiyotiga samarali ta'sir ko'rsatdilar. Butun madaniy olamga tanikli olimlar va mutafakkirlar, Samarkand, Buxoro, Shahrisabz, Xiva singari muxtasam shaxarlar yaratuvchilari bo'lmish ulug' ajdodlarimizning ijodiyoti o'zining ulug'vorligi va go'zalligi bilan hozirgacha hammani lol qoldirmoqda.

«O'zbekistonda o'z berayotgan progressiv o'zgarishlar, — deydi I.A.Karimov, — uning juda katta tabiiy boyliklari, ishlab chiqarish, ilmiy texnikaviy va intellektual imkoniyatlari, noyob milliy madaniy merosi, xalqimiz tarixi va hozirgi hayoti bilan qiziqayotgan dunyoning barcha mintaqalaridagi siyosatchilar, bizneschilar, oddiy odamlarni o'lkamizga tobora ko'proq jalb yetmoqda»¹.

Yendilikda mintaqamizning boy ma'naviy madaniyati, uning noyob milliy kadriyatlarini, bebaxo falsafiy va ma'naviy merosi xalqimizning ruhyati, ma'naviyatini yanada yuksak darajaga ko'tarish uchun xizmat qilmoqda.

Biz Sharq sivilizasiyasi va madaniyatiga mansubligimiz bilan faxrlanamiz, deydi Prezidentimiz I.A.Karimov. Sharq sivilizasiyasi va madaniyati yesa doimo xalqni bo'lg'usi o'zgarishlarga ma'naviy va ruhy jihtdan tayyorlashga intilib kelgan.

Axloqiy kadriyatlar kishilarning bir-birlariga, uzlari mansub jamoaga, vatanga nisbatan tarixan tarkib topgan munosabatlarini ifodalaydi. Axloq muayyan xulq-atvor, odo, xatti-harakat, norma, qoida va prinsiplar majmuasidir. Axloqiy chushunchalarga yaxshilik va yomonlik, burch, vijdon, sha'n (or-nomus), baxt, adolat, ideal kabilar kiradi. Insonning oila, jamiyat, xalq manfaatlarini anglab qilayotgan hr qanday xatti-hrakati yaxshilik kategoriyasi nuqtai nazaradan baholanadi. Burch — kishining Vatan, xalq, jamoa, oila bilan o'zaro munosabatlarida o'z oldidagi majburiyat va mas'uliyatini sezishi, ularga nisbatan

¹ Каримов И.А. Империя даврида иккинчи даражали одамлар, деб ҳисоблашар еди. Т.: «Ўзбекистон», 2005. 64.6

sodaqatlarini ifodalaydi. Vijdon—kishining xatti—hrakatiga o'zining munosabatini, kishining o'z xulq-odobi uchun ma'naviy mas'uliyat hissini ifodalaydi. Sha'n—tushunchasi shaxsga jamiyat beradigan ijtimoiy bahoni belgilovchi va shaxsiy qadr—qimmatini ifoda quvchi kategoriyadir. Baxt tushunchasi insonning ijtimoiy va shaxsiy hayotidagi o'z faoliyati, ro'yobga chiqan orzu-istak va maqsadlaridan mamnunligini bildiradi. Axloq kategoriyalari insonning qarish—turishiga baho beradi, u jamiyatda mavjud, ko'pchilik ma'qullagan hatti harakatga chorlaydi.

Sharq falsafasi va islom ta'limotida axloq—odob, ta'lim-tarbiya masalalariga doimo katta ye'tibor berib kelingan¹.

«Qadimgi ajdodlarimiz,—deydi I.Karimov,—komil inson haqida butun bir axloqiy talablar majmuasini, zamonaviy tilda aysak sharqona axloq kodeksini ishlab chiqanlar. Kishi qalbida haromdan hazar, nopoklikka, adolasizlikka nisbatan murosasiz isyon bo'lishi kerak. Shunday odamgina lafzini saqlaydi, birovning haqiga xiyonat qilmaydi, sadoqatli bo'ladi, Vatani, xalqi uchun jonini fido yetishga ham o'zini ayamaydi. Buning aksi o'laroq, yolg'onchi, va'daboz kishida va vatanparvarlik tuyg'usi bo'lmaydi»².

Jahon xalqlari tomonidan yetirof yetilgan, «Inson huquqlari va yerkinliklari deklarasiyasi»ga muvofiq, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida har bir insonning fuqarolik, shaxsiy huquq va yerkinliklari, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlari, shuningdek inson huquqlari va yerkinliklari kafolatlangan, fuqarolarning burchlari belgilab qo'yilgan.

Ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar ichida istiqlool tufayli qo'lga kiritilgan barqarorlik, tinchlik, totuvlik alohida ahamiyat kasb yetadi.

Barqarorlik, tinchlik, totuvlik bular davlatchiligimizning yangi binosi barpo qilinadigan poydevordir. Bu bizni yertangi porloq kunimizga olib boradigan yo'ldir. Tinchlik va barqarorlik—bular xalqaro hamjamiyat bilan birlashuvchi vositadir. «Insonparvarlik, yaxshilik, sofdillik singari umuminsoniy qadriyatlarni

¹ Миллий истиклол госяи: асосий тушунча ва тамойиллар. Тошкент: «Ўзбекистон», 2000, 10-11.6

² Каримов И.А. Озод ва обод Ватан, еркин ва фаровон хаёт – пировард максадимиз. 8-жилд, Т.: «Ўзбекистон», 2000, 332-333.6

qabul qilgan va birgalikda barham ko'rgan mamlakatgina, xalqgina butun dunyo xalqlariga yaqin va tushunarli bo'lishi, jahon xamjamiyatiga qabul qilinishi mumkin. Faqat ular bilan teng huquqli, o'zaro manfaatli munosabatlar o'rnatilishi mumkin»¹.

Yuqorida biz qadriyatlarning asosiy turlariga to'xtalib o'tdik, xalos. qadriyatlar shular bilan chegaralanib qolmaydi, albatta.

Qadriyatlar subyektini inobatga olgan holda, turli shakldagi mulkdorlarga tegishli bo'lgan moddiy va ma'naviy qadriyatlarning mavjudligini yeslatib o'tish joizdir.

Xususiy qadriyatlarga oila va oila a'zolarining mulklari, ularning xususiy tadbirkorlik asosida orttirgan moddiy va ma'naviy boyliklari kiradi. «Xususiy tadbirkorlik va tashabbusni qo'llab-quvvatlash haqida»gi qonunning qabul qilinishi tufayli keyingi ikki-uch yilda mamlakatimizda kichik tadbirkorlik faoliyati keng rivojlanib bormokda.

Konstitusiyamizga muvofiq, «Xususiy mulk boshqa mulk shakllari kabi daxlsiz va davlat himoyasidadir. Mulkdor faqat konunda nazarda tutilgan hollarda va tartibdagina mulkidan mahrum yetilishi mumkin.

Mulkdor mulkiga o'z xohishicha yegalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf yetadi»².

Jamiyatning negizini tashkil qiluvchi oila — yeng ulug' qadriyat bo'lib hisoblanadi. Unda odamlarning talab-yextiyojlari va qadriyatlari shakllanadi. «O'zbeklarning aksariyati o'zining shaxsiy farovonligi to'g'risida yemas, balki oylasining, karindosh-urug'lari va yaqin odamlarining, ko'shnilarining omon-yesonligi tug'risida g'amxo'rlik qilishni birinchi o'ringa qo'yadi. Bu yesa yeng oliy darajada ma'naviy qadriyat, inson qalbining gavharidir».

Davlat qadriyatdariga uning tasarrufida bo'lgan yer osti va yer usti boyliklari, moddiy va ma'naviy mulklari, suverenitet va hududiy yaxlitligi,

¹ Odilqoriyev X., G'oyibnazarov Sh. Siyosiy madaniyat. – T., 2004. 51 b

² Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси “Ўзбекистон” 2008 й.

aholining tinch xayoti va xavfsizligi, davlat ramzlari, bayrog'i, gerbi va madxiyasi, qurolli kuchlari, moliya, kredit tizimi kabilar kiradi.

Milliy qadriyatlar murakkab ijtimoiy-ruxiy xodisa bo'lib, u millatning tili, madaniyati, tarixi, urf-odatlarini, an'aialarini, jamiki moddiy va ma'aviy boyliklarini, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy xayotining barcha tomonlarini qamrab oladi.

Insonning qaysi millatga mansub yekanligi haqida-tasavvuri faqat g'oyagina yemas, balki tuyg'u hamdir. Bu tuyg'u kishida millatning tarixi, ruhiyati, hozirgi holati va xususiyatini tushunish, his qilish shaklida mujassamlashgan bo'ladi. Insonda milliy ong va qurur bo'lmasa, u o'zining qaysi millatga mansubligini his yetmasa, uning milliy qadriyatlarni anglashini tasavvur qilish qiyin. Toki, millatlar, milliy mafkuralar mavjud yekan, milliy munosabatlar ham, milliy his-tuyg'ular ham, milliy qadriyatlar xam saqlanib qolaveradi. Millatni milliy kadriyatlardan mahrum qilishga urinish tarix va insoniyat oldindagi yeng katta jinoyatdir¹.

Har bir ruhan sog'lom kishida o'z qadr-qimmatini saqlash, o'zini hurmat qilish tuyg'usi mavjud. har bir millatda ham xuddi shu holatni ko'ramiz. Millatlarning o'z-o'zini anglash jarayoni takominlashgan sari milliy manfaatlar ham, milliy kadriyatlar ham kuchayib, mustahkamlanib boraveradi².

Milliy qadriyatlarning yezozlanishi va kuchayib borishi zinhor milliy mag'rurlikka, milliy xudbinlikka, manmanlikka olib kelmasligi kerak. Shuning uchun ham bu masalada xushyorlik, nazokat, insof diyonat, bag'rikenglik sahovat talab qilinadi. Zotan, milliy qadriyatlarning o'zi ayni paytda mintaqaviy yoki umuminsoniy qadriyatlarning uzviy qiymati sifatida namoyon bo'ladi³.

Siyosiy madaniyatni turkumlash mezonlari.

Turli davlat va holqlar rivoji davomida fuqarolar siyosiy xulq – atvor uslubida muayyan qadriyatlar va standartlar ustunligini, hokimiyatlar bilan munosabatlar shakllari va geografik, manaviy, iqtisodiy va h.k. omillar ustun ta'sirida shakllangan boshqa yelementlar ortiq yekanligini aks yettiradi.

¹ Odilqoriyev X., G'oyibnazarov Sh. Siyosiy madaniyat. – T., 2004. 56 b

² Каримов И.А. Миллий истиклол мафкураси – халқ еътиқоди ва буюк келажакка ишончдир. 8-жилд, Т.: «Ўзбекистон», 2000, 505.б

³ Saidov A. Huquqiy madaniyat nazariyasi. 1- tom. – T. 1998. 73.b

Siyosiy madaniyatlarni turkumlash asosini oddiygina omillar tashkil yetishi mumkin. Bular sirasiga, masalan, turli siyosiy tizimlar (X.Yekstayn), mamlakatlar o'ziga xosligi (G.Almond, S.Verbal), siyosiy o'yinda fuqarolar moyilliklari turli (xususan, axloqiy, individualliyatik yoki an'anaviy – D.Yelzar), siyosiy qadriyatlarning boshqa madaniyatlar bilan aloqalar uchun ochiqqligi (diskursivligi) yoki yopiqqligi (nodiskursivligi) (R.Shvarsenberg), madaniyat tarkibiy qismlarining ikki yaxlitligi, (D.Kavanax), mafkuraviy farqlar (Ye.Vyator) va h.k.lar kiradi¹.

G.Almond, S.Verbal «Fuqarolik madaniyati» kitobida (Nyu-York, 1963) taklif yetilgan siyosiy madaniyatni turkumlash usuli fanda ancha mashxur. Angliya, Italiya, GFR, AQS'H va Meksika siyosiy tizimlarining asosiy tarkibi qismlari va faoliyati shakllarini tahlil qilib va qiyoslab, ular siyosiy madaniyatning uch «sof» turini ajratishdi: **patriarxal madaniyat**, unda fuqarolar siyosiy hayot bilan qiziqmaydilar; **tobelik madaniyati**, unda siyosiy institutlarga yo'nalganlik va fuqarolarning individual faolligi darajasi past; **faollik asosiga qurilgan madaniyat**, fuqarolarning siyosiy ishtirokidan manfaatdorligi va faolligidan dalolat beradi. Muallif amalda siyosiy madaniyatning ushbu turlari o'zaro aloqador yekanligi, u yoki bu tarkibiy qismlari ustun aralash shakllarni yuzaga keltirishni ta'kidlaganlar. Siyosiy rejim barqarorligini taminlash nuqtai nazaridan siyosatda fuqarolarning itoatiga ko'rsatmalar va shunga muvofiq ishtirok shakllari ustun bo'lgan tobe'lik madaniyati yeng ommaviy va ayni vaqtda samarali bo'lib hisoblanadi.

Ayni vaqtda siyosiy madaniyat turi umumiyroq asoslarda ham aniqlanishi mumkin. Ular muayyan mamlakatlardagi fuqarolarning siyosiy xulq – atvoridagi turli uslublardagi yeng umumiy belgilarini ochib berish imkonini beradi. Masalan bozor sharoitidagi siyosiy madaniyat haqida (unda siyosat biznesning bir ko'rinishi tarzida qaralib, fuqarolar faoliyati bilan yerkin almashinuv tarzida tushuniladi) va yetatik siyosiy madaniyat (siyosiy hayotni tashkil yetishda va individ siyosiy

¹ Отамуродов С., Ергашев И., Ақромов Ш., Кодиров А. Политология (ўқув қўлланма), Тошкент, «Ўзбекистон», 1999, 53.6

ishtiroki shartlarini belgilashda) davlat institutlarining yetakchi rolini namoyish yetadi. – Ye.Batalov haqida gapirish mumkin¹.

O'ziga xos sivilizasion tuzilish bilan belgilanuvchi va dunyoda mavjud barcha siyosiy madaniyatlarning asosini tashkil yetuvchi yana birj uda umumiy turkumlash mezonlari – madaniyatning shurqqa va g'arbga mansubligi tashkil yetiladi.

Mamlakatimiz aholisi hayotida yuz berayotgan demokratik jarayonlar, shubhasiz, ijobiy hodisa yekanligi yendi sir yemas. U yashash tarzimizning sifat o'zgarishiga asos bo'lmoqda. Har kimning qobiliyatini, kasb mahorati va onglik darajasini namoyon yetishga imkoniyat yaratadi. Anna shu imkoniyat kishini o'ylashga, fikr yuritishga, aqlini ishlatish yo'li bilan farovon turmush kechirishga da'vat yetadi. Har bir oila farovonligi yesa butun mamlakat farovonligini yelgilaydi. Bunday davlat bilan fuqaro ham, jamiyat bilan oila ham yuritadi. Hurriyat, yerkinlik, demokratiya – ulkan oyna. Bu oynaga qarab ayrimlar o'zining unchalik ham ko'rkam bo'lmagan basharasini, changu g'ubor bosgan ma'naviy qiyofasini aniq – ravshan ko'rayapti. Yerkinlik imkoniyatlardan «unumli» foydalanish uchun birovlar nekuyga tushmayapti. Oramizda xurriyat, uning imkoniyatlarni chuqurlashtirish o'rniga undan iloja boricha ko'proq yulib olib, uni o'z maqsadiga qurbon qilish yo'liga o'tib olgan kishilar ham bor².

Shexsning faqat o'zini o'ylashi, barcha tashabbuslar tagiga o'z manfaati turishi, shaxsiy g'amxo'rlik, o'zi uchun yashash, o'zgani o'ylamaslik, barcha umumiy manfaatlardan o'z mafaatini ustun qo'yish kayfiyati demokratiyaning chuqurlashishiga monelik qiladi.

Biz jahon madaniyatiga dahldor bo'lgan, umuminsoniy qadriyatlar taraqqiyotiga olamshumul hissa bo'lib qo'shilgan ulkan madaniyat merosxo'rlarimiz. Biz kishilik tarixini insonparvarlik, insonning o'zligini anglash sari burib yuborgan buyuk allomalar vorislarimiz. Rus olimi L.Gumilevning fikricha, Turkistonda Fan, madaniyat yeng yuqori darajaga ko'tarilgan bir paytda

¹ Saidov A. Huquqiy madaniyat nazariyasi. 1 – 2 tom. – T. 1998. 78.b

² Каримов И.А. Бизнинг бош мақсадимиз – жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислох етишдир. Т.: «Ўзбекистон», 2005, 99.б

«franklar va normanlar vizantiyaliklar va arablardan ilohiyot va hammomda yuvinishni yendigina o'rganishayotgan yedilar...»¹.

Biroq yana shuni ta'kidlash kerakki, biz qanchalik ulug'vor va jahonshumul madaniy merosga voris bo'lmaylik, o'zimizni uning qonuniy merosxo'ri sanamaylik, biri bir inson yekanligimizni, har qanday sharoitda ham butun fazilatlarimiz bilan birga nuqson va illatlardan ham holi yemasligimizni ochiq – oydin namoyish yetayapmiz.

Demak, har qanday sharoitda milliy madaniyat tagida milliy «yovvoyi»lik – xudbinlik, hamma narsadan o'z manfaatini ustun qo'yish, barchani o'ziga qurbon qilish kayfiyati ham turar yekan – da. Anna shunday bir sharoitda kimdir siyosiy shon – shuhrat va nom chiqarish yo'lini tutdi. Adolatu insofni bayroq qilib irodasi sust bo'lgan, nimadandir alamzada odamlarni o'ziga yergashtirib, mitinglaru yurishlar uyushtirildi.

Tizim ma'lum aloqalar tufayli birlashgan yelementlar yig'indisini ifoda yetadi. Siyosiy tizim yesa siyosiy hokimiyat bilan aloqador bo'lgan yelementlarni o'zida birlashtiradi. Siyosiy tizim jamiyatning maqsad va vazifalarini aniqlash, jamiyat tizimidagi yelementlarni birlashtirish va mavjud imkoniyatlarni amalga oshirishga safarbar qiluvchi mexanizmdir. Demak, jamiyatning siyosiy tizimi siyosiy hokimiyatni shakllantiruvchi va amalga oshiruvchi vositalari bo'lgan davlat tashkilotlari va munosabatlarning yig'indisidir.

XX asrning so'ngi choragi butun dunyo bo'yicha demokratiyaning g'olibona tarqalishi davri bo'ldi. 1998 yilda mavjud bo'lgan 191 mamlakatdan 117 tasi yoki 61,3%ida yerkin, yashirin, umumiy teng va nisbatdan adolatli saylovlar o'tkazildi. 1974 yildan keyin 89ta avtokratiya mamlakatlarida demokratik tartibotga o'tildi.²

Biroq bu o'zgarishlar ilmiy adabiyotlarda liberal siyosiy demokratiyaning yemas, balki noliberal demokratiyaning tarixiy davri bo'ladi deb baholanmoqda. Geydelberg universiteti siyosiy fanlar instituti professori V.Markelning asarlarida noliberal demokratiya sifatida defektli (nuqsonli, kamchilikka yega) demokratiya

¹ Saidov A. Huquqiy madaniyat nazariyasi. 1 – 2 tom. – T. 1998.81.b

² Polis, 2000y, №2, s 6.

ko'rsatiladi.¹ «Defektli demokratiya deyilganda, ahamiyatli va ta'sirli «saylov rejimi» vositasi bilan hokimiyatga yega bo'lishni tartibga soluvchi hukumronlik tizimi tushuniladi, biroq unda asosiy siyosiy va fuqarolik huquq va yerkinliklarga mustahkam kafolat bo'lmaydi, gorizont al hukumdorlik nazorati va demokratik qonuniy hokimiyatning samaradarligi cheklangan bo'ladi.

Liberal demokratiyalar yesa konstitusion-huquqiy me'yorlar va tartiblar bilan cheklangan. Hokimiyat tarmoqlarning o'zaro nazorati hamda asosiy fuqarolik huquq va yerkinliklarning ta'minlanishi kafolatlangan, ijro hokimiyati va sud organlarining vakolatlari qat'iy chegaralangan bo'ladi.

Huquqiy davlat fuqarolar huquqlari qat'iy himoya qilinib, qonun hyech qanday iroda, hatto hukumat organi tomonidan bekor qilinishi, o'zgartirilishi yoki vaqtincha to'xtatib qo'yilishi mumkin yemas. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi inson huquqlarini kafolatlaydi va himoyalaydi.

Huquqiy davlatning ikkinchi muhit tamoyili davlat organlari va mansabdor shaxslarning qonunga itoat yetishlari bo'lib, O'zbekistonda qonun ustivorligi qoidasiga amal qilinadi.

Huquqiy davlatning uchinchi muhim tamoyili shaxs yerkinlikning qonun asosida himoyalanishi va kafolatlanishidir. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining ikkinchi bo'limi «Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, yerkinliklari va burchlari» deb atalib, unda fuqarolik masalalari bilan bir qatorda fuqarolarning shahsiy huquq va yerkinliklari, iqtisodiy – ijtimoiy va siyosiy huquqlari asoslari mustahkamlanib qo'yilgan².

¹ Markel V. Formalnie i neformalnie instituti v defektnix demokratiyax. // Polis 2002g, s 7//.

² Musayev F. Demokratik davlat qurishning falsafiy-huquqiy asoslari. – T., 2007.97.b

2.2 SIYOSIY MADANIYATNING QADRIYATLARINI SHAKILLANTIRISH

Hozirgi rivojlangan mamlakatlar tajribasi demokratiya yo'lidan borayotgan, fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirayotgan mamlakatlarning muhim vazifasi, avvalo, siyosiy sohani yerkinlashtirish yekanini ko'rsatmoqda.

Yerkinlashtirish yo'li g'arb davlatlari ijtimoiy-siyosiy hayotida liberalizm mafkuraviy oqimi sifatida XIX asr boshlarida paydo bo'lgan. Liberalizmni yerkinlikka chorlovchi ta'limot deb atash mumkin. Bugungi kunda bu ta'limot demokratik qadriyatlar asosidagi yerkin fuqarolik jamiyatlari hayotiga singib, ko'proqlarning amaliy natijalari sifatida ko'zga tashlanmoqda.

Liberalizm dastlab g'oya, dunyoqarash va mafkura sifatida qaror topgan bo'lsa, uning inson yerki va shaxsiyatining yuksak maqomi, qadr-qimmati va haq-huquqlariga tayangani keng ma'noda siyosiy va iqtisodiy amaliyotga aylanishga imkon berdi.

Bugungi kunda demokratik taraqqiyot yo'lida rivojlanayotgan davlatlar liberal qadriyatlarni to'liq ye'tirof yetadi. Shu bilan birga liberalizm g'oyalarini joriy yetishda o'z taraqqiyot manfaatlari va milliy mentalitetidan kelib chiqadi¹.

Bu jihatdan, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan jamiyathayotini bosqichma-bosqich yerkinlashtirish siyosati, ayniqsa, diqqatga sazovordir. Bu siyosatning mazmuni va strategik tamoyillari prezident Islom Karimov asarlarida har tomonlama asoslab berilgan².

Demokratiyalashtirishning muhim yo'nalishi sifatida jamiyat hayotining barcha sohalarini yerkinlashtirish vazifalarining qo'yilishi bevosita birinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining XIV sessiyasida (1999 yil, 14 aprel) Islom Karimovning «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda» nomli ma'ruzasidagi fikrlari va ko'rsatmalaridan boshlandi, deyishimiz mumkin.

Yerkinlashtirish yo'lining nazariy asoslanishi, amalga oshirib borilishi, yangi vazifalarning belgilanishi I.Karimovning ikkinchi chaqiriq O'zbekiston

¹ Mirzaev M. Erkinlikka ta'limot //Tafaukkur, 4,2001, 12-17 betlar//

² Шайхова Х., Назаров Қ. Умуминсоний кадритлар ва маънавий камолот. Т.: Ўзбекистон. 1992.-40.б

Respublikasi Oliy Majlisining I sessiyasida (2000 yil, yanvar) «Ozod va obod Vatan, yerkin va farovon hayot - pirovard maqsadimiz» nomli ma'ruzasida hamda IX sessiyada (2002 yil, 29 avgust) «O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari» nomli ma'ruzasida davom yettirildi.

Ushbu ma'ruzalar xulosalari asosida tegishli ravishda yerkinlashtirish yo'li vazifalarini belgilashning bosqichlari to'g'risida, ularning umumiy va o'ziga xos xususiyatlari haqida to'xtalish zarur.

Birinchi bosqich, 1999-2000 yillarda yerkinlashtirish yo'lining oltita ustuvor yo'nalishlari va strategik vazifalari aniqlab olindi. Bular, jumladan, qiyosiy holda:

- aholining siyosiy faolligini kuchaytirish;
- jamiyatda manfaatlar va qarama-qarshi kuchlar o'rtasida muvozanatni ta'minlaydigan kuchli mexanizmlarni shakllantirish;
- demokratiyaning yeng muhim tamoyili - odamlarning saylov huquqini, o'z xohish-irodasini yerkin ifodalash, o'z manfaatlarini ro'yobga chiqarish va himoya qilish huquqini ta'minlash uchun haqiqiy shart-sharoit, qonuniy-huquqiy zamin yaratish;
- davlat qurilishi va fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonlarini yerkinlashtirishdagi asosiy vazifalar sifatida hokimiyat barcha tarmoqlarining bir-biridan mustaqil holda ish yuritish tamoyillarini mustahkamlash;
- hokimiyat vakolatlarini nodavlat va jamoat tashkilotlariga, fuqarolarni o'z-o'zini boshqarish organlariga bosqichma-bosqich o'tkaza borish, ularning haq-huquqlari va yerkinliklarini muhofaza yetishni kuchaytirishdan iborat deb belgilandi.¹

Bu vazifalarning amalga oshirilishi uchun qilingan ishlar va shart-sharoitlarning dastlabki natijalarini Oliy Majlisga bo'lgan saylovlarda ko'rishimiz mumkin. Agarda birinchi chaqiriq Oliy Majlisga bo'lgan saylovda ikkita siyosiy partiya va hokimiyat vakillik organlaridan 700 nafardan ziyod nomzod ishtirok

¹ Шайхова Х., Назаров Қ. Умуминсоний қадриятлар ва маънавий камолот. Т.: Ўзбекистон. 1992. -44.б

yetgan bo'lsa, ikkinchi chaqiriq Oliy Majlis saylovida 47 ta subyekt - beshta siyosiy partiya, hokimiyat vakillik organi va saylovchilarning tashabbuskor guruhlaridan jami 1010 nafar nomzod qatnashdi.¹ Bu siyosiy hayotda tobora ko'proq fuqarolar va jamoat tashkilotlarining ishtiroki ta'minlanayotganini ko'rsatadi.

Siyosiy sohani yerkinlashtirish vazifalari I.Karimovning ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning I sessiyasida (2000 yil, 22 yanvar) yanada aniqlashtirildi va mamlakatimizda amalga oshirilayotgan siyosiy islohotlarning mazkur bosqichida oldimizda turgan yeng dolzarb masala deb belgilandi hamda quyidagilarga ye'tibor berishimiz zarurligi ko'rsatildi.

1. Mamlakatimiz siyosiy hayotining barcha sohalarini, davlat va jamiyat qurilishini yerkinlashtirish, avvalo fuqarolarning siyosiy, iqtisodiy faolligini kuchaytirish va insonning o'z qobiliyatini to'la ro'yobga chiqarish uchun tegishli shart-sharoit yaratish lozim.
2. Mamlakatimiz siyosiy hayotida haqiqiy ma'nodagi ko'ppartiyaviylik muhiti qaror topishi darkor. Har bir partiya muayyan ijtimoiy qatlamga tayangan holda, ana shu toifa manfaatlarining himoyachisi sifatida o'zining aniq va ravshan harakat dasturiga yega bo'lishi kerak. Unda har qaysi partiyaning maqsad va vazifalari, jamiyat taraqqiyoti borasidagi muqobil takliflari o'z ifodasini topishi lozim.
3. Nodavlat tuzilmalar, hukumatga qarashli bo'lmagan va jamoat tashkilotlarining, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarining faoliyatini yanada mustaxkamlash va rivojlantirish. Odamlarning siyosiy ongi, siyosiy madaniyati, siyosiy faolligi yuksalib borgan sari, davlat vazifalarini nodavla tuzilmalar va fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich o'tkazib borish zarur. Bu borada o'zini-o'zi boshqaradigan idoralarning nufuzini va mavqyeini oshirish, ularga ko'proq huquqlar berish katta ahamiyat kasb yetadi deyildi.

¹ O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti. T. 2001, 89-bet.

4. Jamiyatda fikrlar xilma-xilligi va qarashlar rang-barangligi, ularni yerkin ifoda yetish sharoitini ta'minlash. Bunda, ommaviy axborot vositalari jamiyatimizda haqiqiy «to'rtinchi hokimiyat»ga aylanishi, fuqarolarning siyosiy huquq va yerkinliklarini ro'yobga chiqarishda yeng ta'sirchan omil bo'lishi kerak. Bu, avvalo, har bir fuqaroning o'z fikrini yerkin ifoda qilish, axborot olish, davlat va jamiyat qurilishining o'ta muhim masalalarini muhokama yetishda faol qatnashish huquqini ta'minlash demakdir.
5. Inson huquqi va yerkinliklarini, odamlarimiz ongida demokratik qadriyatlarni yanada mustahkamlash va rivojlantirish. O'z haq-huquqini taniydigan, o'z kuchi va qobiliyatiga tayanib yashaydigan, atrofida ro'y berayotgan voqyea-hodisalarga mustaqil munosabatda bo'ladigan, shu bilan birga o'z shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg'un holda ko'radigan yerkin shaxsni shakllantirish uchun barcha zarur shart-sharoitlarni yaratish darkor, deb ko'rsatildi.¹

Ushbu vazifalar ijrosi o'tgan yillar davomida muhim siyosiy va huquqiy ahamiyatga yega bo'lgan qonunlar, dasturlar qabul qilinishi va amalga oshirib borilishi bilan ta'minlanmoqda. Bular haqida keyingi bo'limda batafsil ma'lumotlar beriladi.

Siyosiy sohani erkinlashtirish vazifalarining belgilanishidagi yangi bosqich 2002 yildan boshlanib, uning mohiyati va vazifalari I.Karimovning ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasidagi «O'zbekistonda demokragik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari» (2002 yil, 29 avgust) nomli ma'ruzasida bayon yetildi.

Ma'ruzada jamiyatimizni yanada rivojlantirish va sifat jihatidan yangilash borasidagi turtinchi va yeng muhim ustuvor yo'nalish - bu inson huquqlari va yerkinliklarini, so'z va matbuot yerkinligini, shuningdek, oshkoralikni, jamiyatda

¹Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. T.8.-O'zbekiston, 2000y, 332-334 betlar.

ugkazilayotgan islohotlarning ochiqligini ta'minlaydigan demokratik tamoyillarni so'zda yoki qog'ozda yemas, amaliy hayotda joriy qilishdir»¹,— deyildi.

Shuningdek, ma'ruzada beshinchi ustuvor yo'nalish sifatida fuqarolik jamiyatini shakllantirishning muhim sharti bo'lgan nodavlat va jamoat tashkilotlarining o'rni va ahamiyatini keskin kuchaytirish vazifasi qo'yildi. Bu yo'nalish ijtimoiy-siyosiy jarayonlar bilan bog'liq ko'p masalalarni hal qilishda davlati tuzilmalarining rolini kamaytirish va bu vazifalarni bosqichma-bosqich jamoat tashkilotlariga o'tkazishni taqozo yetishiga yana bir bor yetib borib qaratildi.²

Hayotimizni yerkilashtirish yo'nalishlarining yana bir muhim yo'li — markaziy va yuqori davlat boshqaruv idoralari vazifalarini davlat xokimiyatining quyi tuzilmalariga, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich o'tkazib borishni ta'minlashdir, — deb ko'rsatildi.

Oltinchi ustuvor yo'nalish - sud-huquq sohasidagi islohotlarni davom yettirish. Bu sohadagi yeng muhim vazifa sud-huquq idoralarining mustaqilligi va ta'sirchan faoliyatini so'zda yemas, amalda ta'minlash deb belgilandi.

Sharq va g'arb siyosiy madaniyati xususiyatlari.

G'arb siyosiy madaniyati ideallarining ildizlari fuqarolarning umumiy maslahatlarini hal qilishda ishtirokini nazarda tutuvchi qadimgi Yunonistondagi polis (shahar - davlat) hokimiyat shakli, shuningdek, shaxsning fuqarolik suverenitetini qaror btoptirgan Rim huquqiga borib taqaladi. Ularning mazmuniga xristianlikning, avvalo, protestantlik va katolik yo'nalishlari, diniy qadriyatlar ham ta'sir ko'rsatgan. Sharqona me'yorlar va an'analarning xosligi yesa agrar Osiyo jamiyatidagi jamoalar turmush tarzining arab – musulmon, konfusiylilik va hind – buddizm madaniyati qadriyatlari ta'sirida shakllangan xususiyatlardan kelib chiqadi. Qisqasi jamiyat siyosiy hayotida fuqarolarning qadriyatli yo'nalishlaridagi yeng muhim farqlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

¹ Karimov I.A. O'zbekistonda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari. //Xalq So'zi, 30 avgust, 2002 yil.

² Назаров Қ. Қадриятлар фалсафаси.Т.: 2004.-18.б

G'ARB

- hokimiyat inson ustidan insonning jismoniy, ma'naviy v.b. ustunligiga asoslanishiga ishonch;
- siyosatga halol o'yin va fuqarolarning qonun oldida tengligi tamoyillari asosiga qurilgan ixtilofi ijtimoiy voqyelikning bir ko'rinishi sifatida qarash;
- shahsning hokimlik vakolatlarini amalga oshirish uchun tayyorligi anglash, siyosiy huquqlarga mulkchilik huquqini mustahkamlash sharti sifatida qarash; individual yerkinlik ideallarning ustunligi;
- individni siyosatning bosh subyekt iva manbai sifatida tan olish, davlatga fuqarolik jamiyatiga qaram, shaxs huquq va yerkinlikning kafolati, individ va gurux tadbirkorlik faoliyatining fositasi tarzida munosabati;
- shaxs siyosiy hayotida xilma – xillikni, hokimiyatda ishtirokining raqobatliligini plyuralizm va demokratiya afzal ko'rishi, hokimiyatning murakkab tuzilishi (partiyalar, turli bosim guruhlari va h.k.larning mavjudligi) ni ustun qo'yish;
- hukumron yelitalar va yetakchilar jamiyatini boshqarish bo'yicha o'z funksiyalariga oqilona munosabatda bo'lishi, ularning zarurligini tushunish va shartnoma odobi qoidalariga rioya qilish;
- davlat qonun va ko'rsatmalarining xususiy meyorlari va xulq – atvor qoidalaridan ustunligi, fuqarolar siyosiy harakatlarida ma'naviy va huquqiy motivasiya farqlarini anglash;
- fuqarolar siyosiy qarashlarining yetarli darajada mafkuraviylashgani;¹

SHARQ

- hokimiyatning insondagi hyech qaysi fazilat bilan bog'liq bo'lmay, balki kelib chiqishi ilohiy yekanligiga ishonch;
- siyosatga fidoiylik, hammaning ham qo'lidan kelmaydigan va qahramonlar hamda ilohiy boshqaruv qoidalariga bo'ysunuvchi faoliyat sifatida munosabatda bo'lish; siyosiy hodisalar tasoddifiyligini inkor yeti shva siyosatni konsensus, uyg'unlik va tinchlikni qaror toptirish vositasi sifatida tushunish;

¹ Теорическое знание.М.2000.-С.38

- shaxsning g'okimlik vakolatlarini amalga oshirish uchun tayyorligini inkor yetish, individ va hokimiyat o'rtasidagi munosabatlarda vositachisi yehtiyoj; adolat ideallarining ustunligi; shaxsning siyosiy indifferenligi;

- siyosatda yelital va davlatning ustunligini ye'tirof yetish; davlatning shaxsga homiyligi, rahbarligini afzal bilish; jamoa, guruh rahbarlarining shaxsdan ustunligini tan olish; korporativizm qadriyatlarining ustunligi;

- siyosiy hayotda ijro funksiyalari va siyosiy ishtirokining kollektiv shakllariga ularda shaxsiy masuliyat yo'qligi tufayli moyillik; boshqaruvining avtoritar shakllariga intilish; hokimiyat tuzilishini soddalashtirish; harizmatik yetakchini izlash.

- jamiyatni boshqarish bo'yicha hukumdorlar va ularning faoliyatini ilohiylashtirish, ularni nazorat qilish zarurligi haqida komil ye'tiqodning yo'qligi;

- mahaliy qoida va an'analarining (mahaliy huquq) davlat ko'rsatmalaridan ustunligi, jamoa ma'naviy an'analari va qonunchilik holatlari o'rtasidagi ziddiyatlarni siyosiy xulq – atvor motivlari sifatida yumshatishga intilish;

- mafkuraviylik kamroq namoyon bo'lish, turli ye'tiqodlarga toqatlilik (islomiy oqimlardan tashqari);¹

Mumtoz ko'rinishda inson va hokimiyatning aytib o'tilgan qadriyatlari va an'analari tubdan qarama – qarshi siyosiy madaniyatlarni shakllantiradi (masalan, AQSH va Yeronda, Fransiya va Kampuchiyada). va, hatto, siyosiy institutlarni qaysidir bir madaniyat turi namunalari asosida qayta qurish avvalgi madaniyatning ayrim qadriyatlarning ahamiyatini pasaytira olmaydi. Masalan, Hindistonda Buyuk Britaniya mustamlakachilik hukumronligi davrida shakllangan ancha yetuk partiyaviy tizim, parlament va h.k.lar mavjudligiga qaramay, sharq mentaliteti arxetiplari avvalgidek ustunligicha qolmoqda. Shuning uchun saylovlarda bosh rolni partiya dasturlari yemas, qishloq oqsoqollari, qabila oqsuyaklari, diniy jamoa rahbarlari va h.k.larning fikrlari o'ynaydi. Ayrim vaqtda, ayrim G'arbiy Yevropa

¹ Касавин И.Т., Знание и его социальное содержание// Вопросы философии. 1988- № 3 С.130

mamlakatlarda Sharqdagi dinlar va turmush tarziga bo'lgan katta qiziqish siyosiy madaniyat o'zgarishiga hech qanday ta'sir qilmaydi¹.

Rost, ba'zi mamlakatlarda G'arb va Sharq qadriyatlarining qandaydir uyg'unligiga yerishildi. Masalan, Yaponiyaning yetakchi sanoatlashgan davlatlar klubiga texnologiya «sakratishi», shuningdek, mamlakatning urushdan so'nggi okkapasiyasi oqibatlari – uning siyosiy madaniyatda liberal – demokratik qadriyatlarning anchasi mustahkamlanib qolishiga imkon beradi. Geosiyosiy jihatdan o'rtada joylashgan mamlakatlarda (Rossiya, Qozog'iston va h.k.) ham Sharq va G'arb o'rtasidagi o'zaro ta'sir juda tez sur'atlarda boradi – u yerda qadriyatli intilishlar va fuqarolar siyosiy ishtiroki usullarining muayyan aralashmasi shakllanadi.

Shunga qaramay, yuqorida nomlangan Dune sivilizisiyalarining sifat jixatdan farqlari, odat, siyosiy madaniyatlaridagi o'zaro o'zgarmas asoslarini belgilaydi. Ularning yaqinlashuvi – uzoq kelajak masalasi

¹ Пугачев В.П. Соловев А.И. Политологияка кириш. Т.: «Янги аср авлоди», 2004, 401.б

2.3 O'ZBEKSTONDA SIYOSIY MADANIYAT VA UNING HOZIRGI RIVOJLANISHI

O'zbekiston tabiiy resurslarga nihoyat darajada boy, nisbatan yuqori iqtisodiy va ishlab chiqarish texnika qudratiga yega mamlakatdir. Respublikamiz bag'rida foydali qazilmalar mo'l. U tabiiy iqlim sharoitlariga ko'ra, qishloq xo'jalik madaniyatini yuksaltirish imkoniyati baland, mahsulotlar yetpshtirish uchun yeng qulay mintaqalardan biridir. O'lkamiz azaldan ilm-fan va madaniyatning qadimiy markazlaridan biri bo'lib kelgan. Bu o'lka olimlari, yetuk mutafakkirlari jaxon ilm-fani va madapnyatnni o'z kashfiyotlari va o'lmas ilmiy asarlari bilan boyitadilar, insoniyat tafzkkuri tarakdiyotiga juda katta hissa ko'shdilar¹.

Ana shunday o'lkani, uning boyliklarini qo'lga kiritish chorizm tashqi siyosatining maqsadi bo'lib, bu siyosat rus impsratori Pyotr Birinchi tomonidan asoslab berilgan yedi. Ana shu niyatni amalga oishrish ilinjida Pyotr Birinchi O'rta Osiyoga Aleksandr Bekovich Cherkasskiy, Florio Beneveni kabi josuslarni shu o'lkani har taraflama o'rganish uchun yuborgan yedi.

Rossiyaning keyingi xukmdorlari ham mazkur siyosatny amalga oshirish uchun ko'plab josuslar yubordilar, bir qancha yekspedisiya uyushtirdilar va boshqa sa'y-harakatlar kildilar. 1839—1840 yillarda Rusiya Xivani bosib olish uchun Perovski boshchiligida katta harbiy yekspedisiya uyushtirdi. Ammo bosqinchilarning bu harakati zoye ketdi. Yekspedisiya ulkan talofatlar bilan ortga qaytishga majbur bo'ldi.

1864—1875 yillarda chorizm Turkistonni zabt yetgach, o'lkani o'zining mustamlakasiga, metropoliyaning xom ashyo qo'rg'oniga aylantirdi. Bu yesa Turkiston jamiyatining butun turmushini ag'dar-to'ntar qilib yubordi, undagi xalqlarning milliy qadriyatlari, urf-odat, an'analari zo'ravonlik bilan barbod yetildi, jamiyatning tabaqalashuvi kuchaydi.

¹ Каримов И.А. Янги хаётни ескича кара шва ёндашувлар Билан куриб бўлмайди. Т.: «Маърифат» газетаси, 2005 йил 19 феврал

Chorizm tomonidan Turkistonda o'tkazilgan mana shu siyosat, afsuski, O'zbsknstonda oktyabr inqilobidan keyingi davrda ham o'ziga xos usulda davom yetdi. Sobik. SSSR markaziy organlari og'izda milliy jumhuriyatlarni har tomonlama rivojlantirish haqida gapirib, amalda yesa ularning xaqiqiy yehtiyojlarini va manfaatlarini oyoh osti hildilar. Zo'ravonlikka asoslaigan ma'muriy buyruqbozlik tizimi, totalitar markaz o'z qo'lidagi cheksiz xokimiyatni ishga solnb, respublikalarning mustaqilligini, fuqarolarning yeng oddiy haq – huquqlarini ham kamsitib qo'ydi.

Respublika iqtisodiyoti asosan xom ashyo yetkazib berishga o'naltirildi.

Paxta yakka hokimligi uzoq yillar davom yetaverdi. Sug'oriladigan yerlarga muttasil paxta yekib kelindi. Necha – necha o'n yillar davomida zaxri qotil butifosni paxtachilikda qo'llandi, paykallarga sepildi. Oqibat-natijada yerimiz zaharlandi, suv va havo bulg'andi, necha minglab kishilar oshqozon-ichak, sariq kasalliklarga mubtalo bo'lishdi, bolalar, xotin-qizlar va kattalar o'rtasida o'lim ko'paydi¹.

Paxta yakkahokimligi oqibatida suvdan foydalanish izdan chiqqanligi tufayli Orol dengizining sathi nihoyatda pasaypb ketdi. «Suvnnng tobora kamayib ketayotgani va uning sifati yomonlashishi tuproq va o'simlik qatlamining tanazzuliga, o'simlik va hayvonot dunyosiga o'zgarishlariga, baliqni qayta ishlash sohasining yo'qolib ketishiga, shuningdek sug'oriladigan yerlar samaradorligining pasiyishiga olib keladi. Yekoligik saqlash, «Yekosan» va boshqa jamg'armalarning ta'sis yetilishi tabiatan unumli foydalanish va atrof muhitni muhofaza qilish muammo lariga oid mintaqaviy va jaxon ilmiy-amaliy anjumanlarining o'tkazilishi tabiatnn muxofaza qilish ishlariga jamoatchilikning keng jalb yetilishi bunga misol bo'la oladi.

Mintaqamizda tabiatni muhofaza qilish ishlari quyidagi vazifalarni hal qilishga qaratilmog'i lozim:

— qishloq xo'jalik yekinzorlarini saqlash, tuproq yerroziyasiga qarshi kurashni kuchaytirish, yerlarni seldan, ko'chkilardan, o'pirilishlardan, sho'r

¹ Левитин Л. Ўзбекистон тарихий бурилиш палласида. «Ўзбекистон» - 2001. 81.6

bosishdan, zaharlanishdan, suv bosishdan va qaqrab qolishdan himoya qilishni ta'minlash;

— foydali qazilma konlarini yanada kompleks ravishda o'zlashtirish, ularni g'azib olish va qayta ishlash chog'ida nobudgarchilikka yo'l qo'ymaslik;

— Orol dengizi, Sirdaryo, Amudaryo va boshqa daryolar suvlari sathini kamaytirishning oldini olish, ularni ifloslanishdan saqlashni kuchaytirish choralarini amalga oshirish, Suv manbalari, shu jumladan kichik daryolar va ko'llarni qurib qolishdan va ifloslanishdan muhofaza qilishni yaxshilash, Markaziy Osiyodagi yeng muhim daryo havzalaridagi suv xujalik komplekslarini avtomatlashtirilgan boshqarish sistemalarini yaratish, irrigasiya tarmoqlarini hozirgi dav talabiga muvofiqlashtirib qayta qurish;

— zararli moddalarning atrof muhitga chiqarib tashlanishini kamaytirish va chiqarilayotgan gazlarni zararli aralashmalardan tozalashni yaxshilash, gaz va changlarni yutuvchi g'oyat samarali apparatlar, suv tozalaydigan uskunalar, shuningdek, tabiiy muhitning xolatini nazorat qiluvchi moslamalar hamda avtomat stansiyalar ishlab chiqarishni ta'minlash;

— issiqlik yelektr stansiyalarida mazutdan, torfdan yoqilg'i sifatida foydalanishni kamaytirish;

— o'rmonlarni yong'indan saqlash hamda ularni zararli hasharotlardan va kasalliklardan muhofaza qilish. Iyota daraxtlarini kengaytirish, posyolkalar va ularning atroflarida yangi ko'kalamzorlarni yaratish, mavjud shunday zonalarini obodonlashtirish;

— ilmiy asoslangan qo'riqxonalar xududlari va milliy bog'larni vujudga keltirishni davom ettirish. Yovvoyi hayvonlarni mutanosib ravishda ko'paytirish hamda tabiiy ko'l, xovuzlar va suv omborlarida qimmatli baliq turlarini urchitib ko'paytirish tadbirlarini amalga oshirish;¹

Yekologik inqirozni hal qilish uchun barcha mamlakatlar hamkorlik bilan ish tutishlari maqsadga muvofiqdir. Bu hamkorlik to'la teng huquqli, har bir mamlakatning suverenitetini hurmat qilish, olgan majburiyatlarni, xalqaro huquq

¹ Odilqoriyev X., G'oyibnazarov Sh. Siyosiy madaniyat. – T., 2004.97.b

normalarini vijdonan bajarish asosida b o'lishi lozim. Biz yashab turgan zaminning qat'iy talabi mana shulardan iborat¹.

O'zbekistonda siyosiy madaniyatning o'ziga xos xususiyatlari.

O'zbekiston demokratiasining qaysi yo'nalishlaridan bormoqda? Huquqiy demokratik davlatni barpo yetish, fuqarolik jamiyatini vujudga keltirish oliy maqsad yekan, unga yerishishning yagona yo'li demokratiyani chuqurlashtirishdir. Ayni paytda O'zbekistonda davlatchilikning xuddi anashu jixatiga qanday qaralmoqda?

Yeng avvalo shuni takidlash kerakki, demokratik jamiyatni barpo yetishning xalqaro tamoyillari, dunyo tan olgan, yetirof yetgan, barcha uchun umumiy bo'lgan yo'riqlari mavjud.

Bu bevosita fuqarolarning o'z xohish irodasini yerkin ifodalash huquqiga yegalligi, ozchilikning ko'pchilikka bo'ysunishi, barcha fuqarolarning millati, yelati, ijtimoiy kelib chiqishi va diniy ye'tiqodidan qat'iy nazar tengqurligi, davlat va jamiyat boshqaruvida qonun ustivorligi, saylash-saylanish huquqi va boshqalardir.

Bular qayrib barcha mamlakatlarda konsitusiylarida qat'iy belgilab qo'yilgan tartib – qoidalar hisoblanadi.

Anashundan kelib chiqib demokratiyaning turli shakllari vujudga kelishi muqarrar. Ayrimlar O'zbekistondagi demokratik jarayonlar, uni hayotga tadbiiq yetishning sharqona tamoillari haqida gapirar yekan, demokratiya demkoratiya – da, uning sharqonayu g'arbonaligi bormi? – degan fikrlarni bildirishmoqda. To'g'ri yuzaki qaraganda demokratiya – demokratiya – da. U hamma uchun birday ijtimoiy xodisa! Biroq, uning mag'zini chaqsangiz, mazmunini chuqurror anglasangiz, masala ancha – muncha murakkab yekanligini sezish qiyin yesam. Yerkin fikr, yeng avvalo, fikrlash tarzidan, ma'naviy ruhiy ko'nikmadan yerkin xatti – harakat yesa, turmush tarzidan axloqo'iy mezonlardan kelib chiqadi. Anashuning o'zi G'arbda g'arbonalikni, Sharqda sharqonalikni taqozo yetadi.

¹ Левитин Л. Ўзбекистон тарихий бурилиш палласида. «Ўзбекистон» - 2001. 87.6

Demak demokratiyani hayotga tadbqiq qilishda xalqning milliy yehtiyojlaridan kelib chiqib yondoshish kerak buladi. Aks holda demokratiya tadbqirbozlik va kompaniyabozlikki aylanib qolishi mumkin, xolos¹.

Ma'lum bir mamlakatda demokratiyani joriy yetishda faqat uning o'zi aholining barcha yehtiyojlarini qondira oladimi, ma'naviy – ruhiy olamini qamraydimi? Yo'q! Chunki, har bir xalqning o'z turmush tarzi, tarixiy an'analari, hayotga munosabatlari va boshqa jixatlardan kelib chiqib, demokratiyaga yondoshish usuli bor. Anashu nuqtai nazardan qaraganda prezident islom Karimov «Sharqda demokratik jarayonlarning qadimdan shakillangan o'ziga xos va o'ziga mos xususiyatlari bor. Buni aslo nazardan qochirib bo'lmaydi. Ya'ni Sharqda demokratik jarayonlar uzviy ravishda va asta – sekin taraqqiy topadi. Bu soxada inqilobiy o'zgarishlar yasashga urinishlar g'oyat noxush, hatto fojiali natijalarga olib keladi. Inqilobni g'arb olimlari ham «ijtimoiy taraqqiyotning iptidoiy va yovvoyi shakli» deb ataganlar tabiiyki bunday yo'l bizga aslo to'g'ri kelmaydi»², deganida demokratiyani joriy yetishning bosqichma bosqich, asta – sekinlik Bilan, odamlarning ongi va qalbi orqali amalga oshirish kabi o'zbekistona tamoyillari mavjudligini ko'rsatadi.

Demak, boshqaruvda bo'lgani kabi hurriyat munosabatda ham boshqalardan andoza olish, mamlakat tub aholisi ruhiyatini hisobga olmaslik rahbarni ham, aholini ham, butun mamlakatni ham boshi berk kuchaga kiritib qo'yadi. Masalan, G'arb demokratiyasini Sharq mamlakatlarida joriy yetish mumkin yemas. Unga taqlid qilish kutilmagan fojealarga olib kelishi mumkin. Buning achchiq natijalarini Tojikiston misolida ko'rdik. Yerkinlikka otiqcha yo'l berish, davlat va boshqaruv apparatining behad bo'shashib ketishi, hokimiyat jiolvining o'z holiga tashlab qo'yilishi ming –minglab xonadonlar boshiga kulfat keltirish bilan yakunlanishini ko'rdik, ko'plab salbiy xodisalarga guvoh bo'ldik. Qolaversa, Rossiya Federasiyasidagi ahvol hammamizga saboq bo'lishi kerak. U yerda bundan qariyb ikki yuz yil burun bashorat qilib ketgan Krilovning mashhur

¹ Odilqoriyev X., G'oyibnazarov Sh. Siyosiy madaniyat. – T., 2004. 99.b

² Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 3 –jild, T., «O'zbekiston» 1996, 8 – 9 betlar.

«Oqqush, qisqichbaqa va cho'rtan baliq» masalidagi voqeya sodir bo'ldi. Mamlakatni har kim o'z tomoniga tortgani, davlat, hukumat va parlament o'rtasidagi, kelishmovchiliklar chuqurlashib ketganligi sababli xalq hayoti tahlikali tus oldi¹.

Mamlakatimizda vujudga kelayotgan ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy barqarorlik, ishlab chiqishdagi uzluksiz jarayon umumxalq va umumdavlat manfaati yo'lidagi qattiqqo'llik, talabchanlik va qat'iy intizom natijasidir.

Odatda yakka –yakka shaharlarning ruhiy kechinmalari, hatti – harakatlari va fe'l – atvoridan umumjamiyat kayfiyati, uning ma'naviy qiyofasi shakllanadi. Mustaqillik hayotimizga tobora chuqurroq kirib borayotgan, yangicha manaviy – siyosiy muhit shakillanayotgan bir paytda bu muhim ahamiyat kasb yetadi. Yendi har galgidan ham xushyorroq bo'lishimiz, qo'lga kiritgan buyuk nematni asray olishimiz kerak².

Ayrimlar so'z va fikr yerkinligi zarur, deb bong urishdi. Biroq, ular hyech narsa bilan chegaralanmagan so'z va fikr yerkinligi, noo'rin va beo'xshov, xalq boshiga kulfatlar keltirishi mumkin bo'lgan xatti – harakatimizni chegaralab turish zarurligini tushunmaydi. Atoqli faylasuf Andre Jid ham «yerkin fikrlash imkoniyatiga yega bo'lish uchun yeng avvalo xatti – harakatimiz og'ir oqibatlariga olib kelmasligi kafolatiga yega bo'lmog'imiz lozim», degan yedi³.

Hurriyat – bu faqatgina yaxshi turmush kechirishga va ko'ngil tusagancha yashashga davo qilish imkoniyati yemas! Aksincha, u yerkin mehnat qilish, yaratish, bunyod yetish imkoniyati! Barcha yehtiroslaru junbushlardan holi bo'lgan aql –idrok tantanasi! Biz demokratiyani anashunday tushunishimiz, anglashimiz lozim. Anashunda u aholining iroda kuchi, iroda va tafakkuri bilan turmush tarziga, yaxshi yashash vositasiga, jamiyatni ham, inson hayotini ham yezgulik sari yo'naltiradigan qudratli kuchga, buyuk qadriyatga aylanadi. Demokratik jarayonlar va bevosita shaxsning unga tayyorlanish hodisasi birmuncha murakkab. U qat'iy iroda va o'z–o'zini boshqarishni, ma'lum qonun– qoidalar doirasida yerkin faoliyat

¹ Odilqoriyev X., G'oyibnazarov Sh. Siyosiy madaniyat. – T., 2004. 103.b

² Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 3 –jild, T., «O'zbekiston» 1996, 11.b

³ Odilqoriyev X., G'oyibnazarov Sh. Siyosiy madaniyat. – T., 2004. 105.b

ko'rsatish va yerkin fikrlash tamoyillarini o'zlashtirishni, «demokratiya zanjiri» oatida yashashga ko'nikma hosil qilishni talab yetadi.

Demokratiyaning takomilashish jarayoni, uning umuminsoniy qadriyatlarga aylana borish xodisasi bevosita shaxs yetukligi, komillik darajasi va ma'naviy qiyofasi Bilan chambarchas bog'liq bo'lgan o'ta murakkab voqyelikdir. Ayni paytda u butun jamiyat taraqqiyotining asosiy mezonidir. Darhaqiqat, jamiyatning ma'naviy qiyofasi bevosita demokratik jarayonlarning nechog'lik chuqurlashishi va fuqarolar onglilik darajasining miqyosi bilan belgilanadi. Yoki Diana Revich ta'biri Bilan aytganda, «demokratiya bir jarayon. Mushtarak hayot va ish usuli bo'lib, qotib qolgan yemas, rivojlanayotgan xodisadir. Demokratiya barcha fuqarolar orasida hamkorlik, kelishuv va o'zaro munosabatlarda chidamli bo'lishni taqazzo yetadi. Bunga rioya yetish oson yemas. Yerkinlik burchdan ozod yetilish yemas, aynan burch degani»¹.

Demokratiyani anglash – shaxsning hamma uchun birday zarur bo'lgan qonunlarga to'la rioya yetish, aniq tartib – intizomga tayanib yashash salohiyati. Demokratiya bizga inson haq – huquqlarini himoya qiladigan umumxalq va umumdavlat manfaatlarini asraydigan barcha qonunlarga bo'ysunib yashashni o'rgatadi².

Qolaversa, har bir halqning fikrlash darajasi vaqyea va hodisalarga munosabati, uni baholash tarzi, o'zining tarixiy kelib chiqishi, qadimiy an'analar asosida shakllangan turmush tarzi va tabiati bilan belgilanadi. Sharq demokratiyasi yesa aksincha – andishachilik, G'arbda ota – onasini sensirash, Sharqda yesa o'zidan kattalarga, oqsoqolga hurmat bilan qarash, aql bilan ish tutish an'analari mavjud. Umuman, hayot tarzi, an'analari hamma vaqt har bir mamlakat xalqlarning xul – atvorini shakllantiradi, xatti – harakatini, voqyealarga munosabatini odatga, fe'l – atvorga aylantiradi. Demak zarurat tug'ilganida, yuqorida aytganimizdek, Mag'ribdagi voqyeani Mashriqqa ko'chirish, Mashriqdagi holatni Mag'ribda zo'rlab amlga oshirish mumkin yemas.

¹ Tadjixanov U., Saidov A. Huquqiy madaniyat nazariyasi. 1-tom. – T. 1998. 88.b

² Tadjixanov U., Saidov A. Huquqiy madaniyat nazariyasi. 1-tom. – T. 1998. 90.b

Anashundan kelib chiqib mamlakatimizda yuz berayotgan jarayonlarni kuzatib, aytish mumkinki, o'z milliy davlatchilik tajribalarimiz va an'analарimizga tayanib har qanday sharoitda ham og'ir vazminlik va aqil - idrok bilan ish tutish demokratiyani joriy dtishning «o'zbek modeli»dir¹.

O'zbekistonda demokratik jarayonlarning aholi ongi va dunyoqarashi, qalbi va ma'naviy – ruhiy dunyosi orqali tabiiy ravishda chuqurlashayotgani uning tom ma'nodagi siyosiy madaniyatini, sog'lom va go'zal ma'naviy qiyofasini balgilaydi. Bu asta – sekinlik Bilan turmush tarzimizga aylanib borayotgan noyob qadriyat, shuurimizga o'rnashib qolayotgandek oliy haqiqatdir.

Jamiyatning siyosiy tizimi, undagi demokratik jarayonlar fuqarolarning siyosiy ongi, siyosiy madaniyati darajasi bilan uzviy bog'liq bo'ladi.

Sobiq totalitar tuzum inqirozidan so'ng ko'pgina mamlakatlarda o'tish davri bilan bog'liq bo'lgan, siyosiy sohadagi bir qator ziddiyatlar vujudga keldi. Siyosat va huquq bilan bog'liq bo'lgan qarorlariing qabul qilinishi bilan ularning bajarilishi o'rtasida katta uzilish mavjudligi yaqqol ko'rinib qoldi. Qabul qiliigan qarorlar bajarilmasligining sababi oxir-oqibat huquqiy mexanizmning ishlab chiqilmaganligida yemas, balki siyosiy-huquqiy ijro madaniyatining yetishmasligida hamdir².

O'zbekiston fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirish yo'lidan bormoqda. Fuqarolik jamiyatini shakllantirishning muhim vositalaridan biri jamiyatda, yonatrofda kechayotgan voqyea va hodisalarga fuqarolarning munosabati qay darajada yekanligi bilan ham belgilanadi. Fuqaro - jamiyat, yeng avvalo o'z hayotiga daxldor bo'lgan nimaiki bo'lsa, unga ongli munosabatda bo'lmog'i lozim. Ongli munosabat - avvalo, fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda faol ishtiroki demakdir.

Ma'lumki, keyingi paytda qonun chiqaruvchi hokimiyat tomonidan tayyorlanayotgan qonunlarning aksariyati xalqimiz fikr-mulohazalarini inobatga olgan holda qabul qilinmoqda. Demokratik saylov tizimini yanada

¹ I.A.Karimov Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 3 –jild, T., «O'zbekiston» 1996, 21 b

² Tadjixanov U., Saidov A. Huquqiy madaniyat nazariyasi. 1-tom. – T. 1998. 92.b

takomillashtirish, uning jamiyatda tutgan o'rne va ahamiyatiga nisbatan munosabat fukarolarimizning xukuqiy bilimi, madaniyati oshgani sayin yanada teran mohiyat kasb yeta boshlaydi.

O'zbekiston jamiyatida hali fuqarolarning siyosiy madaniyati va siyosiy faolligi demokratik tamoyillar darajasida yemasligi ko'rinadi. Bu hakda Islom Karimov «Aholimizning siyosiy faolligi hali zamon talablari darajasida yemasligini, hamon sust yekanini kayta-qayta aytishga to'g'ri kelmoqda... Barcha muhim qarorlar yuqoridan qabul qilinib, bizlarni bor-yo'g'i itoatgo'y ijrochilarga, ba'zan o'ylanmay qabul qilingan qarorlar qurboniga aylantirgan ma'muriy-buyruqbozlik, mustabid tuzum illatlaridan judo bo'lishimiz qiyin kechayapti», — deb ko'rsatadi. Bunday ahvolga barham berishning muhim yo'li va vositalari sifatida kuyidagi vazifalar ko'rsatib o'tildi. Avvalo, «Siyosiy madaniyatni yuksaltirish kerak. Odamlar hokimiyat qarorlari qanday qabul qilinishini, ularning ijrosi qanday nazorat qilinayotganini bilishlari, bu qarorlarni tayyorlash va amalga oshirishda faol ishtirok yetishlari zarur. Boshqacha aytganda, hokimiyat markazda va joylarda saylangan hokimiyat o'z taqdirini qay tarzda hal yetayotgani, ularning istiqbolini qay tarzda belgilayotganidan xabardor bo'lib turishi kerak¹».

Albatta, oddiy odamlar va ijtimoiy guruhlar siyosiy jarayonga bir xilda kirisha olmaydilar. Ularning ba'zilar siyosatga befarq qaraydilar, boshqalari faqat ba'zi paytlarda siyosiy jarayonda ishtirok yetadilar, uchinchilari yesa siyosiy kurashga ortiqcha intiladilar. Umuman, siyosiy hayotda ishtirok yetish faolligi darajalarini quyidagi guruhlariga bo'lib, taqqoslash mumkin; siyosatda ishtirok yetmaydigan fuqarolar, saylovlarda ovoz beruvchilar, siyosiy partiyalar va boshqa siyosiy tashkilotlar faoliyatida ishtirok yetuvchilar, mansab izlovchilar va siyosiy yetakchilar.

Ushbu muammolar hozirda demokratikjamiyat yaratish yo'lida jiddiy g'ov bo'lmoqda. Prezident I.A.Karimov Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki Boshqaruvchilar Kengashining 2003 yil 4 mayda Toshkentda o'tkazilgan XII yillik majlisidagi nutqida «...olg'a harakatlanishimizdagi asosiy to'siq-bu islohotlarni

¹ Karimov I.A. Vatan ozodligi-oliy saodat. T.8. T. O'zbekiston, 2000y.

amalga oshirishdagi yarim-yortilik, ya'ni boshlangan o'zgarishlarni mantiqiy nihoyasiga yetkazmasligimizdir. Bu- konservatizm, ongimizga o'rnashib qolgan yeskicha fikrlash asoratlari, to'rachilik, kadrlarning tayyor yemasligi, ularda tajriba va bilim yetishmasligidir»¹ —deb ta'kidladi.

Biz yaqin o'tmishda siyosiy madaniyatning totalitar turini boshimizdan o'tkazdik. Turli ijtimoiy guruhlarining o'ziga xos maqsad va manfaatlarini ochiq namoyon qilishga yo'l qo'ymaslik, ularning siyosiy hayotdagi tanlash imkoniyatlarini chegaralash, har qanday muqobillikni inkor qilish, bitta mulkchilik turi, bitta partiya, bir o'ringa bitta nomzod kabi cheklashlar haligacha xotiramizda. Shuning uchun siyosiy madaniyatni shakllantirish oson kechayotgani yo'q.

Siyosiy madaniyatni yanada yuksaltirish uchun quyidagi muhim shart-sharoitlarni yaratish talab yetiladi:

- iqtisodiy va ijtimoiy hayot sohasida: mulkchilikning turli shakllari, yeng alvvalo xususiy mulkchilik paydo bo'lishi, xo'jalik yuritish turli usullarining amal qilishi, shuningdek, iqtisodiy faoliyatning mustaqil subyektlari kabi boshqa omillar bilan bir qatorda siyosiy faollik, turli-tumanlik uchun shart-sharoit hozirlash;

- jamiyat o'z ijtimoiy tuzilmasi va turli manfaatlari bo'yicha qanchalik rang-barang bo'lsa, demokratik siyosiy madaniyat tizimi shakllanishi uchun ham shunchalik keng zamin paydo bo'ladi;

- fuqarolik jamiyati rivojlanishining ustuvorligini ta'minlash sohasida: fuqarolik jamiyati siyosiy institutlarni shakllantiradi, davlatga o'zi zarur deb hisoblagan me'yorlardagi vakolatlarni beradi. Davlat hokimiyatini taqsimlash asosan saylovlar vositasida amalga oshadi. Hyech kimga va hyech bir guruhga bu hokimiyatni na amalda, na huquqiy jihatdan o'z monopoliyasiga aylantirishga yo'l qo'yilmaydi;

- asosiy guruh va ularning vakillari bo'lgan siyosiy partiyalar hamda harakatlar o'rtasida ijtimoiy rivojlanishning asosiy qadriyatlari ideallari va maqsadlariga nisbatan aniq kelishuvchanlikning mavjud bo'lishi;

¹ Karimov I.A. Boshqaruvchilar kengashining XII yillik majlisidagi nutq //Xalq so'zi, 2003y. 5may.

- ham huquqii jihatdan, ham amalda shaxs yerkinligining ta'minlanganligi;¹

Bunday siyosiy madaniyat sharoitida partiyalar va hokimiyatdagi mansabdor shaxslarning doimiy almashib turishi odatdagi va zaruriy hol bo'lib qoladi. Bundan tashqari siyosiy madaniyat demokratik tamoyillar va barqaror, mustahkam ko'rsatmalarning mavjudligini, shakllangan amaliy demokratik qoidalar va an'analarning hayotda amal qilishini, qarashlar plyuralizmining zaruriyligi va muqarrarligini, turlicha fikrlash va turlicha fikrlovchilarga nisbatan chidamlilikni tan oladi.

Mamlakatimizda siyosiy islohotlarning muhim ahamiyati shundaki, hozirda xalq ommasining ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ular siyosiy madaniyatini yuksaltirish, demokratiyaning yeng muhim tamoyillarini hayotga tatbiq yetish uchun zarur shart-sharoitlar yaratildi. Davlatimiz rahbari fuqarolarning siyosiy qaror qabul qilishdagi ishtirokiga alohida ahamiyat bermogda. Yendilikda fuqarolar o'zlarining siyosiy iroda va manfaatlarini ifodalaydigan jamoat tashkilotlari faoliyati vositasida yoki bevosita siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonida ishtirok yetishlari zarur.

Ushbu yo'nalishda ommaviy axborot vositalarining umumxalq fikrini ifodalashi, siyosiy madaniyat va siyosiy faollikni kuchaytirishdagi rolga ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasidagi ma'ruzasida Islom Karimov alohida ye'tibor qaratdi. «Axborot sohasini jadal rivojlantirish, ommaviy axborot vositalari - matbuot, radio, televideniye faoliyatini yerkinlashtirish fuqarolik jamiyati asoslarini barpo yetish jarayonining uzviy tarkibiy qismiga aylanishi zarur» — deyildi.

Islom Karimovning ushbu ma'ruzasida fuqarolik institutlarini shakllantirish masalalari ham diqqat markazida bo'ldi. «Bu masalani yechishda birinchi galda mamlakatimizdagi mavjud siyosiy partiya va harakatlar hozirgi zaif va mo'rt holatdan chiqib, o'z faoliyatini jonlantirishi, taraqqiy topgan demokratik davlatlar tajribasi asosida yurtimizda haqiqiy ko'ppartiyaviylik, demokratik parlameitarizm tizimi, ijobiy siyosiy raqobat muhitini qaror toptirishga va jamiyatimiz siyosiy

¹ Tadjixanov U., Saidov A. Huquqiy madaniyat nazariyasi. 1-tom. – T. 1998. 93.b

maydonida tan olingan siyosiy oppozisiya bo'lishiga hissa qo'shishi lozim»¹, deb ko'rsatildi.

I.Karimovning XIV sessiyadagi ma'ruzasida⁴⁴ davlat boshqaruv tizimida hozirgacha uchrab turgan to'rachilik, o'z vazifasiga sovuqqonlik bilan qarash, poraga sotilish kabi salbiy holatlar mavjudligi, ushbu muammolarni yechish va davlat boshqaruv tizimini takomillashtirib borish uchun quyidagi masalalarga yo'l ko'rsatildi.

- birinchidan, davlat boshqaruv tizimining o'zini rivojlangan va demokratik mamlakatlar namunasi asosida takomillashtirish;
- ikkinchidan, kadrlar masalasini hal yetish. Boshqaruv tizimining asosiy, hal qiluvchi joylarida zamonaviy fikr yuritadigan, o'z xalqi, o'z Vatani manfaatlariga g'oyat sadoqatli, yuqori malakali kadrlar ishlashi lozim;
- uchinchidan, ijroiya hokimiyati ustidan jamoatchilik, avvalo saylab qo'yiladigan hamda vakolatli organlar nazoratini, boshqacha aytganda, zarur vakolat berilgan xalq deputatlari amalga oshiradigan nazoratni butun choralar bilan kuchaytirish lozim;
- to'rtinchidan, xalq noiblari va rahbarlari saylovchilari oldida o'z vaqtida hisobot berishlari zarur;²

Ma'ruzada davlat tasarrufida qolishi kerak bo'lgan asosiy vazifalar sifatida: konstitusiyaviy tuzumni, mamlakatning mustaqilligi va hududiy yaxlitligini himoya qilish, huquq-tartibot va mudofaa qobiliyatini ta'minlash, inson huquqlarini, iqtisodiy faoliyat yerkinligini himoya qilish, samarali tashqi siyosat o'tkazish, strategik ahamiyatga molik masalalar, muhim iqtisodiy va xo'jalik masalalari, pul va valyuta muomalasi bo'yicha qarorlar qabul qilish, xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining huquqiy shart-sharoitlarini yaratish, yekologiya masalalari, umum Respublika transport va muhandislik kommunikasiyalarini rivojlantirish, yangi tarmoqlarni vujudga keltiradigan ishlab chiqarishni barpo yetish kabilar ko'rsatildi.

¹ Karimov I.A. O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asolarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari. Xalq so'zi, 30-avgust 2002y.

² Karimov I.A O'zbekiston XXI asarga intilmoqda. T 7., Toshkent O'zbekiston, 1999y betlar.

³ Odilqoriyev X., G'oyibnazarov Sh. Siyosiy madaniyat. – T., 2004. 93.b

Iqtisodiy sohada yerkinlashtirish qator sohalarda mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish orqali amalga oshirildi. Chunki ijtimoiy sohada yerkinlashtirish jarayonlarini keng qamrovli olib borish uchun iqtisodiy asos yaratish lozim yedi. O'rta va kichik mulkdorlar sinfini shakllantirish ana shunday tayani vazifasini bajardi. Bu ijtimoiy hayotni yerkinlashtirishni mamlakat rahbariyati, xususan Prezident I.Karimov tomonidan juda puxta o'ylab tuzilgan reja asosida amalga oshirish natijasi yedi. MDHga a'zo ba'zi mamlakatlarda sho'ro tuzumi qulagandan keyingi dast-labki yillardayoq ham iqtisodiy, ham siyosiy sohada yerkinlashtirishni bir vaqtning o'zida va qisqa muddatda amalga oshirish to'g'risida jar solindi. Bunday jar solishning maqsadi soxta obro' orttirish yedi. Mohiyat jihatdan yesa bunday urinishni aravani otning oldiga o'tkazib qo'yish bilan qiyoslash mumkin. Chunki jamiyatda iqtisodiy tayanch va huquqiy asos yaratilmas yekan, yerkinlashtirishni amalga oshirish mumkin yemas.

Bizning mamlakatimizda yerkinlashtirish uchun iqtisodiy poydevorni yara-tish bilan birga huquqiy asos ham yaratib borildi. Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risida qator qonunlarning qabul qilinishi xuddi shu maqsadni ko'zlab amalga oshirilgan yedi.¹

Yerkinlashtirish uchun iqtisodiy va huquqiy baza yaratilgandan keyin mamlakatimizda ijtimoiy hayotni yerkinlashtirish respublika siyosiy hayotidagi asosyy yo'nalish qilib belgilandi. Yendi bu yo'nalishda keng qamrovli ishlar amalga oshirila boshladi. Bu borada Oliy Majlisning XIV sessiyasi va unda Prezident I.Karimovning «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda» nomli ma'ruzasi yangi davr ochdi. Bu ma'ruzada yerkinlashtirish mamlakatning bundan keyingi taraqqiyotida asosiy yo'nalish yekani ta'kidlanishi bilan birga u qaysi yo'l bilan amalga oshirilishi ham ko'rsatib berildi. Ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasidagi ma'ruzasida siyosiy islohotlar to'g'risida gapirar yekan, Prezident yerkinlashtirishni birinchi galdagi vazifa sifatida belgiladi. Bu boradagi muhim masalalar ichida mamlakatimiz siyosiy

¹ Odilqoriyev X., G'oyibnazarov Sh. Siyosiy madaniyat. – T., 2004. 95.b

hayotining barcha sohalarini, davlat va jamiyat qurilishini, davlat boshqaruvini yerkilashtirish masalalariga alohida ye'tibor berish zarurligini ta'kidladi.

Davlat boshqaruvini yerkilashtirish choralari sifatida I.Karimov tomonidan davlat organlarining funksiyalarini fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlariga va hukumatga qarashli bo'lmagan jamoat tashkilotlariga berish masalasi ko'rsatildi. Bu masalaning naqadar muhimligini shundan ham bilsa bo'ladiki, inson huquqlarini ta'minlash va himoya qilish, demokratiya kabi umuminsoniy qadriyatlarni ijtimoiy hayotni yerkilashtirishsiz tasavvur ham qilib bo'lmaydi. Shuning o'zi ham yerkilashtirish mamlakatning bundan keyingi taraqqiyoti uchun qanchalik muhim ahamiyat kasb yetishini ko'rsatadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, siyosiy madaniyat keng ma'noda: fuqarolarning siyosiy bilimlari, mo'ljal – baholari, siyosiy hatti – harakatlarining darajasi va tabiatning anglatib, siyosiy munosabatlarini yo'naltirib turish jarayonlarining ijtimoiy – siyosiy qadriyatlari mazmuni va sifatini, an'analari va qonun – qoidalarini o'z ichiga oladi. Tor ma'noda: yesa siyosiy madaniyat – siyosiy munosabatlar mazmunini va sifat darajasini belgilab beradigan o'zaro muloqot tarzini belgilaydi.

Demak siyosiy madaniyat shunday sharoitda shakllanadi: Demokratik ijtimoiy tuzum sharoitida. Milliy qadriyatlar rivojida. Davlatning ma'naviy, siyosiy sohadagi siyosati tufayli. Ilmiy asoslangan bilimlar zaminida. Huquqiy davlat (qonun ustivorligi) sharoitda.

Shuningdek, siyosiy madaniyat rivojlanishining 6 asosiy manbasi mavjudligini ko'ramiz. Bular:

- 1) Insonparvarlik.
- 2) Demokratiya.
- 3) Oshkoralik.
- 4) Ko'ppartiyaviylik.
- 5) Tarixiy vorisiylik sharoitida (shaxs, to'da, gurux, tabaqa, millat, yelat, jamiyat, insoniy mezonlar asosida).
- 6) Ijtimoiy – siyosiy tuzumga mos ravishda.

Qadriyatlar esa siyosatning tub mohiyati amal qilayotlan jamiyatning tabiatiga mos keladigan va uning maqsad – manfaatlari yo'lida xizmat qiladigan davlat hokimiyatining iqtisodiy – xo'jalik, ijtimoiy – siyosiy, ma'naviy – axloqiy, mafkuraviy, mudofaa – muxofaza sohalarining uyg'un va mo'tadil ravishda ishlab turishida namoyon bo'ladi.

Kadrlar siyosatning tub mohiyati amal qilayotgan jamiyatning tabiatiga mos keladigan va uning tub maqsad – manfaatlari yo'lida xizmat qiladigan davlat hokimiyatibarcha sohalaridagi faoliyatning uyg'un ravishda ishlab turishini ta'minlashda namoyon bo'ladi.

Kadrlar siyositini samarali asalg'a oshirishda ob'ktiv va subyektiv omillarning uygun tarzda namoyon bo'lishi muxim rol o'ynaydi.

O'zbekiston Respublikasining kadrlar siyosatida bozor iqtisodiyoti talablariga har tomonlama javob beradigan, ilg'or texnika va texnologiyani yaxshi yegallagan, fan yutuqlaridan to'g'ri foydalanilgan mahaliy malakali kadrlarni tayyorlashga alohida ye'tibor qaratilmoqda.

Shunday qilib kadrlar siyosati jamiyat hayotining boshqa sohalarida yuritilayotgan siyosat yo'nalishlariga o'xshash butunlay yangicha mazmunkashf yetib, demokratik va fuqarolik jamiyati qurishni yanada faollashtirishga xizmat qilmoqda.

Aytadigan bo'lsak, aholining siyosiy madaniyati darajasi jamiyat rivojlanishining muhim sharti, demokratiyalashtirishning amaliy natijasi, yerkinlashtirishning muhim maqsadlaridan biri hisoblanadi. Siyosiy madaniyat va siyosiy faollik masalalariga ta'lim, tarbiya, ijtimoiy turmush, ma'naviy-ma'rifiy sohalariga alohida ye'tibor qaratishimiz zarur.

Jamiyatning siyosiy tizimi, undagi demokratik jarayonlar fuqarolarning siyosiy ongi, siyosiy madaniyati darajasi bilan uzviy bog'liq bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi "O'zbekiston" 2008/
2. Karimov I.A. O'zbekiston: Milliy istiklol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-jild, T.: «O'zbekiston», 1993, 35-83, 222-331-betlar.
3. 3.Karimov I.A. O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istikbo-lining asosiy tamoyillari. 3-jild, T.: «O'zbekiston», 1995, 12-bet.
4. 4.Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sagasi: xavfsizlikka taxdid, barkarorlik shartlari va tarakkiyot kafolatlari. Asarlar, 6-jild, T.: «O'zbekiston», 1998, 35-50-betlar.
5. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. 7-jild, T.: «O'zbekiston», 1998, 415-683-betlar.
6. Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalkni-xalk, millatni-millat kilishga xizmat yesin. Asarlar, 7-jild, T.: O'zbekiston 1999, 96-98-betlar.
7. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmokda. Asarlar. 7-jild, T.: «O'zbekiston», 1999, 380-bet.
8. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, yerkin va farovon xayot – pirovard maksadimiz. 8-jild, T.: «O'zbekiston», 2000, 332-333-betlar.
9. Karimov I.A. Milliy istiklol mafkurasi – xalq ye'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. 8-jild, T.: «O'zbekiston», 2000, 504-505-betlar.
- 10.Karimov I.A. O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chukur-lashtirish va fukarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari. «Xalk so'zi», 2002 yil 30 avgust.
- 11.Karimov I.A. Biz tanlagan yo'l – demokratik tarakkiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi o'n birinchi sessiyasidagi nutki. «Xalk so'zi», 2003 yil 25 aprel.
- 12.Karimov I.A. Tinchlik xavfsizligimiz o'z kuch-kuvatimizga hamjixatligimiz va kat'iy irodamizga boglik. T.: «O'zbekiston», 2004. 400-bet.
- 13.Karimov I.A. Imperiya davrida ikkinchi darajali odamlar, deb hisoblashar yedi. T.: «O'zbekiston», 2005. 64-bet.

14. Karimov I.A. Bizning bosh maksadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizasiya va islox yetishdir. T.: «O'zbekiston», 2005, 96-bet.
15. Karimov I.A. Yangi xayotni yeskicha kara shva yondashuvlar Bilan kurib bo'lmaydi. T.: «Ma'rifat» gazetasi, 2005 yil 19 fevral.
16. Karimov I.A. Azim poytaxtimiz har jixatdan go'zal va obod bo'lsin. Prezident Islom Karimovning Xalk deputatlari Toshkent shahar kengashining navbatdan tashkarii sessiyasidagi nutki. «Xalk so'zi», 2005 yil 23 aprel.
17. Karimov I.A. “O'zbek xalki xech kachon, xech kimga karam bo'lmaydi”. T. “O'zbekiston”, 2005.
18. Azizxo'jayev A.A. Mustakillik: kurashlar, iztiroblar, kuvonchlar. «Akademiya» nashriyoti, 2001.
19. Aliyev B.A., Rafikov G.A., Sultonov T., Raxmonov B. O'zbekistonda demokratik jamiyat kurish nazariyasi va amaliyoti fanidan o'kuv ko'llanma. Toshkent- 2005.
20. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shaxri. Toshkent: «Xalk merosi», 1993.
21. Bekmurodov A. Sh. , Aliyev B., Boboyev A va b. O'zbekistonda parlamentarizim tarakkiyoti. Toshkent. 2005.
22. Гулямов С.С. Основы нашей уверенности «Труд», 2005 11 март.
23. Гулямов С.С. Феномен экономического прорыва «Труд», 2005 6 апрел.
24. Гулямов С.С. Климат для инвесторов «Труд», 2005 26 апрел.
25. Dubkov V.V. Politologiya (Osnovi politicheskix znaniy). Uchebnik. T.: «Mexnat», 2004. 3-16-betlar.
26. Levitin L. O'zbekiston tarixiy burilish pallasida. «O'zbekiston» - 2001.
27. Milliy istiklol goyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. Toshkent: «O'zbekiston», 2000, 10-11-betlar.
28. Nizomulmulk. Siyosatnoma yoki Siyar ul-mulk. Toshkent: «Adolat», 1997.
29. Otamurodov S., Yergashev I., Akromov Sh., Kodirov A. Politologiya (o'kuv ko'llanma), Toshkent, «O'zbekiston», 1999, 41-50-betlar.
30. Odilqoriyev X., G'oyibnazarov Sh. Siyosiy madaniyat. – T., 2004

31. Pugachev V.P. Solovev A.I. Politologiyaka kirish. T.: «Yangi asr avlodi», 2004, 386-403-betlar.
32. Sultonov T., A. Xayitov. Demokratik jamiyat sari: parlament saylovlari va siyosiy partiyalar. TDIU 2005y
33. Temur tuzuklari. Toshkent:, 1991.
34. Tadjixanov U., Saidov A. Huquqiy madaniyat nazariyasi. 1 – 2 tom. – T. 1998
35. Tulenov. J. Qadriyatlar falsafasi. T.:1998